



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: info@xs.uz

2025-yil 17-iyun, № 122 (9017)

Seshanba

Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## ISLOHOTLAR SHIDDATI MAS'ULIYAT VA TASHABBUSKORLIKNI TALAB ETADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-iyun kuni islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiynayotgan masalalar tahlili bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilish boshida joriy yilning besh oyidagi iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlar qayd etildi. Bu davrda sanoat 6,4 foiz o'sgan, eksport miqdori 18 foiz, xorijiy investitsiyalar 46 foiz oshgan. Qiymati 3 milliard dollarlik 2 ming 500 dan ziyod yangi quvvatlar ishga tushgan. 2 million 400 ming odam daromadli bo'lgan.

Shu bilan birga, dunyoda turli mojarolar avj olyapti, savdo aloqalari va logistika qiynalishyapti. Tinchlik, adolat va inson qadriini ulug'lashga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham oshib boryapti.

Shuning uchun hokimlar va vazirlar imkoniyatlarni to'g'ri baholab, tashabbus ko'rsatib ishlashi, aholi va biznes vakillari bilan muloqotni yanada kuchaytirib, muammolarni tez-tez hal qilib berishi zarur.

Yig'ilishda bu masala hududlar va tarmoqlar kesimida tahlil qilinib, tizimli kamchiliklar ko'rsatib o'tildi.

Masalan, har bir tumandagi 40 dan ziyod tashkilotlarda o'rtacha 500 nafar xodim ishlaydi. Lekin ayrim oddiy masalalarni hal qilish uchun ham viloyatlardan, ular esa respublikadan ruxsat olishi kerak. Yoki vakolati va mablag'i yetarli bo'lgan tashkilotlar o'zini "nazoratchi" deb bilib, aholining og'irini yengil qilish bilan shug'ullanmayapti.

Vazirlar, hukumatdagi mas'ullar tartib-intizomga qattiq e'tibor bermagani uchun islohotlar ijrosi cho'zilib ketyapti. Sud qarorlari vaqtida bajarilmayotgani yuzasidan ham murojaatlar ko'p.

Yilning qolgan davrida 26,5 milliard dollarlik investitsiya kiritilishi, 1-sentyabrgacha 3,3 milliard dollarlik

35 ta yirik loyiha ishga tushirilishi ko'zda tutilgan. Yaqinda bo'lib o'tgan IV Toshkent xalqaro investitsiya forumida 30,5 milliard dollarlik savdo va investitsiya shartnomalari imzolandi. Ular bo'yicha ham tizimli ish olib borish kerak.

Shu bois yig'ilishda ijro intizomini mustahkamlash, aholi muammolari bilan ishlash bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yilishi belgilandi.

Bundan buyon ijro intizomiga Hisob palatasi mas'ul bo'ladi, uning vakolatlari kengaytiriladi. Berilgan mablag'larning faqat to'g'ri sarflanishi emas, balki nima samara bergani, aholi bundan qanchalik rozi bo'lgani ham o'rganiladi. Palata bu tahlillardan kelib chiqib davlat rahbariga takliflar kiritadi. Prezident Administratsiyasining Nazorat inspeksiyasi tugatiladi.

Toshkent shahrida o'zini oqlagan "Xalq nazorati" elektron portali butun respublikada ishga tushiriladi. Bu tizim murojaatlarning yagona vazifasini ko'radi va unga barcha platforma, idora, hokimliklar ulanadi.

Oxirgi paytlarda Xalq qabulxonalarini aholi dardini eshitib, masalalarni hal qilish o'rniga murojaatlarni davlat tashkilotlariga taqsimlovchi vositachiga aylantirib qolgan edi. Joylardagi muammolar hal bo'lmagani uchun ijtimoiy tarmoqlar orqali chiqishlar ko'paygan.

Prezidentimiz aholining dardu tashvishlarini eshitib, odamlarga sharoit yaratib berish rahbarlarning asosiy vazifasi ekanini ta'kidlaydi.

— Har bir murojaat ortida inson

taqdiri, uning dardi va umidi turganini unutmasligimiz kerak. Xalqning dardi bilan yashash biz uchun majburiyat, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu bois Xalq qabulxonalarini tarkibi fidoyi mutaxassislar bilan to'ldirilishi aytiladi. Endi Xalq qabulxonalariga viloyat va tuman hokimining o'zi rahbarlik qiladi. Ular har kuni ishini aholi dardi va tashvishini eshitishdan boshlaydi. Bugun tug'ilgan muammoni keyinga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Murojaatni boshqa idoraga yubormasdan, shu joyning o'zida hal qiladi. Buning uchun tuman hokimining vakolatlari kengaytiriladi.

Masalan, hokimda tuman tashkilotlari shtatini taqsimlash, yaxshi rahbari rag'batlantirish, sustrog'ini vazifasidan ozod qilish bo'yicha vakolat yo'q. Hokim ham, o'rinbosarlari ham ko'p vaqtini yig'ilish o'tkazishga sarflayapti.

Quy bo'g'indagi shtatlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadiga mos emas. Tarmoq tashkilotlari ko'p yillik rejalar dasturini qilib tashabbus ko'rsatmayapti, kunlik topshiriqlar bilan ovora.

— Tuman bo'g'ini samarali ishlamas, yuqoridan qanday topshiriq tushirilmasin, ko'zlangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari shunga qaraligan muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Endi tumanlarda yondashuv ham, boshqaruv tizimi ham o'zgaradi. Bu yil Surxondaryo viloyatida hamda 16 ta hududda — Bektemir, Qo'ng'iroq,

Chimboy, Asaka, G'ijduvon, G'allaorol, Yakkabog', Xatirchi, Chortoq, Bulung'ur, Sirdaryo, Quva, Shovot, Hazorasp tumanlari, Marg'ilon va Yangiyo'l shaharlarida yangicha boshqaruv joriy etiladi.

Ya'ni iqtisodiyot va moliya, investitsiya, qishloq xo'jaligi, bandlik, qurilish, ekologiya, madaniyat, oila va xotin-qizlar, yoshlar masalalari bo'yicha 9 ta davlat idorasining tuman bo'limi hokimlik tizimiga o'tadi. Ulardagi jami shtatlarni taqsimlash, ishga olish va bo'shatishni hokim hal qiladi. Tumanlar ixtiyorida qoladigan mablag'lar manbasi ko'paytiriladi.

Endi hokimda 4 nafar o'rinbosar bo'ladi. Tuman yo'q shaharning rivojlanish rejasiga qarab, qaysi soha bo'yicha o'rinbosar bo'lishini uning o'zi belgilaydi. Hokim o'rinbosariga aniq vazifalari yuklatilib, har bir vazifa va funksiyasi mablag'i bilan mustahkamlanadi.

Hokim va uning o'rinbosarlari samaradorlik ko'rsatkichlarini to'liq bajarsa, keyingi yil hududga beriladigan mablag' 10 — 15 foiz ko'paytiriladi. Aks holda mablag' oshirilmaydi va mas'ul rahbar ishdan ketadi.

Tumanda soha mutasaddilari va yetakchi tadbirkorlardan iborat "Islohotlar shtabi" tuziladi. U orqali mahallalar kesimida loyiha, infratuzilma, moliyaviy manba, kadrlar masalalari qamrab olgan uch yillik dastur tayyorlanadi. Kelgusi yil uchun byudjet, infratuzilma, ishlab chiqarish, xizmat, investitsiya va bandlik dasturlari shu asosda tasdiqlanadi.

Bu yangi tajriba, natijalarga

qarab, kelgusi yildan butun respublikamizda yo'lga qo'yiladi.

Yana bir muhim yangilik — ishchan va jozibador muhit yaratish uchun 1-avgustdan barcha viloyat va tuman hokimliklarida ish haqi oshiriladi, xodimlarga ishga qarab oylik ustama va qo'shimcha bonus beriladi.

Lekin o'ziga yuklatilgan vazifani bajara olmaganlarga chora ko'riladi. Ana shunda hamma intizom va reja bilan ishlashga o'rganadi.

Yig'ilishda hududlarda bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, investitsiya va eksport hamda muhitni yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Soliq ma'murchiligini yaxshilab, aholi tadbirkorligini va ish o'rni yaratishni ko'lab-quvvatlash zarurligi ta'kidlandi.

Mahallalarga suv olib borib mevasabzavot yetishtirish, zamonaviy agrotexnologiyalar orqali eksportni ko'paytirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tildi. O'rmon va yaylovlardan chorvachilikda foydalanib, go'sht va sut mahsulotlarini ko'paytirish, oziq-ovqat inflyatsiyasini jilovlash choratadbirlari belgilandi.

Shaharlarda jamoat transportini rivojlantirish, yo'l harakatini to'g'ri tashkil qilib, tirbandlik va avtohalokatlarni kamaytirishning ahamiyati qayd etildi. Odamlar sayr qiladigan joylar, yashilik va bolalar maydonchalarini ko'paytirib, xalqni rozi qilish talabi qo'yildi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan Bosh vazir, hukumat a'zolari va hokimlar axborot berdi.



## O'ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN QOZOG'ISTONDA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan "Markaziy Osiyo — Xitoy" formatidagi ikkinchi sammitda ishtirok etish uchun 17-iyun kuni amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo'ladi.

Tadbirda mintaqaviy davlatlari rahbarlari va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin ishtirok etadi. Siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashiladi. Yakunda qo'shma hujjatlar qabul qilinishi ko'zda tutilgan.

Sammit doirasida O'zbekiston Prezidenti Xitoy Raisi bilan ikki tomonlama uchrashuv ham o'tkazildi.

Ta'kidlash joizki, bu formatdagi birinchi sammit Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy o'rtasidagi sheriklik munosabatlarini mustahkamlash va amaliy hamkorlikni kengaytirish maqsadida 2023-yil may oyida Xitoyning Sian shahrida bo'lib o'tgan edi.

O'ZA.

"Markaziy Osiyo — Xitoy":

## MINTAQAVIY HAMKORLIKNING SAMARALI MODELI

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-iyun kuni Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tadigan "Markaziy Osiyo — Xitoy" ikkinchi sammitida ishtirok etadi.

### Sammit

Mazkur platformaning asosiy maqsadi — mintaqaviy davlatlari va Xitoy o'rtasidagi ko'p qirrali aloqalarni mustahkamlash, mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni jadallashtirishdan iborat.

Format kun tartibi doirasida global va mintaqaviy, siyosat, xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport, hududlararo aloqalar, qishloq xo'jaligi, energetika, "yashil" energetika, bojxona ishi, madaniy-gumanitar kabi sohalar hamkorlikni mustahkamlash, milliy

taraqqiyot strategiyalarini "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi bilan uyg'unlashtirish bo'yicha fikr almashiladi.

Tizimli tus olayotgan "Markaziy Osiyo — Xitoy" muloqoti, birinchi navbatda, o'zaro iqtisodiy manfaatlariga qaratilgan. Xitoy so'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarining savdo hamkorlari orasida doimiy ravishda yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Xitoy kapitali ishtirokida mintaqaning barcha mamlakatlarida sanoat, energetika, transport, logistika va savdo sohalarida o'nlab loyihalar amalga oshirilyapti.



## SHAHAR JOZIBADORLIGINING MUHIM OMILI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida rejalashtirilgan qurilish va jamoat transporti loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

So'nggi yillarda izchil oshgan investitsiyaviy jozibadorlik tufayli poytaxtimizda bunyodkorlik sur'ati jadal. Ko'p qavatli uy-joylar, mehmonxonalar, biznes markazlari, madaniyat va sport majmualari shahar imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Yangi Toshkent qurilishi ham boshlanib, ikkisi zamonaviy megapolisga aylanmoqda.

Uzoq yillar xizmat qiladigan bunday ishlarda, albatta, sifat juda muhim. 13-may kuni shu masala bo'yicha yig'ilish o'tkazilgan edi. Davlatimiz rahbari qurilishda sifat va xavfsizlik birinchi o'rinda ekanini ta'kidlab, bu yo'nalishlarni ilmiy rivojlantirish, sohaga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish bo'yicha ko'rsatmalar bergandi.

Bugungi taqdimotda shu borada bajarilgan ishlar haqida axborot berildi. Topshiriqlarga binoan yangi loyihalashtirilayotgan ko'p qavatli binolarning xavfsizlik talablariga mosligi

qayta o'rganib chiqilgan. "O'zGASHKLITI", Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti, favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, sanitariya-epidemiologiya kabi 10 ga yaqin tashkilotlarning ilmiy-texnik xulosalari olingan. Yangi talabga ko'ra ko'p qavatli binolarning zilzilaga bardoshlilik 9 ballidan kam bo'lmaydi. Har bir shunday loyiha bo'yicha yig'ma xulosalar qilinadi.

Osmono'par inshootlar, yangi majmualar ko'paygani sari ularga barqaror elektr energiyasi ham zarur. Shu bois Chilonzor tumanida 160 megavattli yangi podstantsiya qurilishi rejalashtirilgan. Bu orqali shu hududdagi bo'lajak loyihalar uchun qo'shimcha quvvat paydo bo'ladi, hozirgi tarmoqlarga yuklama tushmaydi.

Shuningdek, ushbu tumanda 20 ming metr kub sig'imga ega suv rezervuari barpo etilishi mo'ljallangan. Natijada Shayxontohur, Chilonzor va Uchtepa tumanlarida ichimlik suvi ta'minoti

uzluksizligi ta'minlanadi. Kuniga qariyb 8 ming kilovatt-soat elektr tejaladi.

Toshkent shahri ko'plab ishbilarmonlik tadbirlari, forum va ko'rgazmalarga mezbonlik qilmoqda. Shunday joylardan biri Central Asian Expo Uzbekistan — CAEx majmuasi. Xalqaro anjumanlar doirasida turli uchrashuvlar ham o'tkazilishini inobatga olib, bu yerda muzokara zallari qurilishi ko'zda tutilgan.

Shahar jozibadorligining yana bir muhim omili — qulay jamoat transporti. Poytaxtimizda ham avtobus, ham metropoliten yo'nalishlari izchil kengaytirib borilmoqda.

Avval xabar qilinganidek, metropoliteni Toshkent traktor zavodi dahasiyaga olib borish rejalashtirilgan. Buni 2 bosqichda amalga oshirish nazarda tutilmoqda. Birinchi bosqichda Chilonzor yo'lining Pushkin bekatidan Toshkent halqa yo'ligacha yer yuzasi bo'yab metro yo'li quriladi. Ikkinchi bosqichda u yerdan Toshkent

traktor zavodi dahasiyaga shohbekatigacha yer osti yo'li barpo etiladi.

Shuningdek, transportlar harakatiga qulaylik yaratish maqsadida mazkur temir yo'li Toshkent halqa yo'li ostidan o'tkazish nazarda tutilmoqda. Yer osti yo'nalishi ham ko'chadagi harakatni to'xtatmagan holda quriladi. Bu yangi metro yo'li 85 ming yo'lovchini qamrab olishi kutilmoqda.

Ushbu sohadagi yana bir istiqbolli loyiha — Yangi Toshkent shahriga metro yo'li. U hozirgi "Do'stlik" metro bekatidan boshlanib, yangi markazgacha boradi. Uzunligi 21 kilometr, 9 ta bekatdan iborat bo'lishi kutilayotgan bu metro kuniga 230 minggacha yo'lovchilarni qamrab ololadi.

Taqdimotda ushbu loyihalarning texnik-iqtisodiy jihatlari ko'rib chiqildi. Davlatimiz rahbari qurilish sifati va madaniyatini oshirish, odamlarga qulay sharoitlar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'ZA.

## O'ZBEKISTONNING INSON HUQUQLARI VA IJTIMOIY HIMOYANI TA'MINLASH BORASIDAGI YUTUQLARI YUQORI BAHOLANDI

Shu yilning 2 — 13-iyun kunlari Jeneva shahrida Xalqaro mehnat konferensiyasining navbatdagi 113-sessiyasi bo'lib o'tdi.

### E'tirof

Har yili o'tkaziladigan an'anaviy konferensiya ishida Xalqaro mehnat tashkilotiga a'zo 187 ta davlatdan qariyb 5 ming, shu jumladan, hukumat, kasaba uyushmalari hamda ish beruvchilar uyushmalari vakillari ishtirok etdi. Kun tartibidan ish

joylarida biologik xatarlardan himoyalashni ta'minlashda xalqaro standartlarni o'qitish, platformali bandlik, rasmiy iqtisodiyotga o'tish, shuningdek, joriy yilning noyabr oyida Qatarda o'tkaziladigan ijtimoiy rivojlanish bo'yicha butunjahon sammitiga tayyorgarlik ko'rish masalalari o'rin oldi.



## TINCHLIKNI TANISH

Urushlar, qurbonlar, qonlar, ziddiyatlar, tahlika va tahdidlar, tajovuzlar qarshisidagi o'ylar

Notinch dunyo uzra yana bir tong otdi. Lekin bu tong kimgadir kulfat, boshqa birovga ayriliq, yo'qotish, alam va izzitirob olib keldi. Bugungi jahonda maqsadsiz urushlar tufayli mislsiz g'am-qayg'ular, faryodlar, nolalar ovozi kezib yuribdi.

### Mushohada

XXI asrda ochlikdan, suvsizlikdan o'layotganlarning borligi, ularning aksariyati bolalar ekanlari qanchalar dahshat. Urushni boshlayotganlar, unga sabab bo'layotganlar bir chetda qolib, begunoh odamlarning qoni to'kilayotgani, yaqinlarini

yo'qotayotgani, boshpanasiz qochqinlarga aylanayotgani bilan mutlaqo murosasiz qilib bo'lmaydi.

Bugun biz notinch dunyoda yashayotganimizni unutmasligimiz kerak. Urush ogohlilikni, hushyorlikni yo'qotgan butun boshli mamlakatlarni, xalqlarni o'z domiga ayovsiz tortib ketmoqda. Insoniyat urushlardan xulosa chiqarish o'rniga uning yangi-yangi usullarini o'ylab

topmoqda. U insoniyatga saboq beradi degan aksiomalar butunlay o'z mazmun-mohiyatini yo'qotgandek, go'yo.

Ming afsuski, jahonda urushlardan manfaat ko'ruvchi kuchlar ham paydo bo'ldi. Qurol-yarog' savdosi, qurollanish poygasi avj oldi. O'zga mamlakatlarning ichki ishlariga aralashish, ularni o'z yo'lga yurgizish, bo'syundirishga urinishlar tobora ortib bormoqda. Ziddiyatlarni keltirib chiqarishga ixtisoslashtirilgan, buni o'ziga kasb qilib olgan tuzilmalar mavjud. Ular turli fondlar, ijtimoiy yordamlar, ko'ngillilar qiyofasiga kirib borgan

joylarida urush olovini yoqishga intilayotir. Urushlar insoniyatga qurbonlar, aziyatlar, ayriliqlar berish bilan bir qatorda kimlamidir boy va baquvvat bo'lishiga ham sababchi bo'lyapti. Biroq kimgadir taxt, baxt olib kelgan urush xalqqa hech narsa bermagan. Bundan keyin ham bermaydi.

Urush olovi ichida qolgan Iroq, Suriya, Liviya, Afg'oniston kabi mamlakatlar aholisi o'ta qashshoqlashgan, davlat mustaqilligi esa savol ostida qolgan, iqtisodiyot butunlay tanazzulga yuz tutganini ko'rib-bilib turibmiz. Vaziyat shunday davom etaversa, bu mamlakatlarni

juda og'ir ko'rigilklar kutmoqda.

Mavjud tuzumni xorijlik hamkorlari yordamida ag'darganlar, ularning ko'magi bilan "demokratik jamiyat" barpo etmoqchi bo'lganlar butunlay yangilashadi. Aslida ahvol oldingidan ham yomonlashib, millionlab odamlar qochqiniga aylanmoqda. Ularning taqdiri noma'lumligicha qolayotir.

Inqilob va isyonlar farovonlik olib kelgan mamlakatni ko'rmadim. Aksincha, ahvol yanada murakkablashib, boshi berk ko'chaga kirib qolayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.



# O'ZBEKISTONNING INSON HUQUQLARI VA IJTIMOY HIMOYANI TA'MINLASH BORASIDAGI YUTUQLARI YUQORI BAHOLANDI

**1** Sessiya ishida Oliy Majlis Senati Raisi, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiya raisi T. Norboyeva boshchiligidagi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamda Ish beruvchilar konfederatsiyasi vakillaridan iborat O'zbekiston delegatsiyasi ishtirok etdi.

Delegatsiyamiz sessiya doirasidagi XMT Bosh direktorining "Ish o'rinlari, huquqlar va o'sish: o'zaro aloqalarni mustahkamlash" mavzuidagi ma'ruzasini muhokama qilishga bag'ishlangan yalpi majlisda, XMT qo'mitalaridagi muhokamalarda, Ijtimoiy adolat uchun global koalitsiya forumida hamda Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurashish kuniga bag'ishlangan tadbirlarda faol ishtirok etdi.

Xalqaro mehnat konferensiyasining 113-sessiyasi doirasida 12-iyun – Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurashish kuni munosabati bilan tashkil etilgan maxsus konferensiyada O'zbekiston tajribasi XMTga a'zo 187 ta davlatlar orasida qisqa vaqt mobaynida bolalar mehnati va majburiy mehnatga butunlay barham bergan davlat sifatida taqdimot qilindi.

Unda Tanzila Norboyeva "Bolalar mehnatiga barham berishda O'zbekiston tajribasi" mavzuida ma'ruza qildi.

Milliy komissiya raisi o'z nutqida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning kuchli siyosiy irodasi hamda shaxsiy tashabbusi bilan ushbu illatga qarshi ko'rilayotgan qat'iy amaliy choralar o'zining ijobiy natijasini ko'rsatganini ta'kidlab o'tdi. Bundan tashqari, mamlakatimizning bolalar mehnati va majburiy mehnatga nisbatan qat'iy pozitsiyasi, ularning taqiqlanishi Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan sohaga oid islohotlarning mustahkam huquqiy poydevoriga bo'lgani aytilib o'tildi.

Shuningdek, tadbirda Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi, Xalqaro ish beruvchilar Konfederatsiyasi, YUNISEF kabi xalqaro tashkilotlar hamda Germaniya, Braziliya, Filippin, Marokash va Chili hukumati vakillari ma'ruza bilan ishtirok etdi.

Ekspertrlar tomonidan O'zbekiston tajribasi bugungi kunda bolalar mehnati va majburiy mehnatga qarshi kurash olib borayotgan davlatlar uchun aniq bo'la olishi alohida e'tirof etildi.

Xalqaro mehnat tashkiloti Bosh direktorining tashabbusi hisoblangan Ijtimoiy adolat bo'yicha Global koalitsiyada O'zbekiston birinchi a'zo mamlakat sifatida ishtirok etdi.

Jenevadagi Xalqaro mehnat konferensiyasi doirasida bo'lib o'tgan

Ijtimoiy adolat bo'yicha Global koalitsiya forumida Senat Raisi Tanzila Norboyeva o'z ma'ruzasida O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilayotgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida inson huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va har bir fuqaroga munosib turmush sharoitlarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish borasidagi ishlarga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi.

Qayd etilganidek, ijtimoiy himoyaga endilikda nafaqat imtiyoz, balki fundamental huquq sifatida qaralmoqda. Bu borada Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan 2030-yilgacha ijtimoiy himoya bo'yicha milliy strategiya universal qamrov, ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy sug'urta va mehnat bozorida faol choralarini o'z ichiga oladi.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston inson kapitalini rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, samarali boshqaruv va ekologik barqarorlikka erishishni asosiy ustuvorlik deb biladi. Ushbu tamoyillar inson huquqlariga asoslangan iqtisodiy yondashuv bilan uyg'unlashadi.

Tadbirda BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi so'nggi yillarda O'zbekistonda inson huquqlari sohasida erishilgan ijobiy tajribani e'tirof etdi. O'zbekiston inson huquqlari va ijtimoiy himoyani ta'minlash borasida

yuqori natijalarga erishgan davlat sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston xalqaro hamkorlikka ochiq, tajriba almashishga tayyorligi va har bir siyosat, byudjet hamda islohot inson huquqlarini inobatga olgan holda shakllantirish zarurligi borasidagi qat'iy pozitsiyasini yana bir bor namoyon etdi. Shuningdek, Jenevaga tashrif doirasida delegatsiya a'zolari Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh direktori Jilber Ungbo, Bosh direktor o'rinbosari Beate Andres, Xalqaro mehnat standartlari departamenti direktori Korinn Varga hamda "Better Cotton" tashkiloti rahbari Alan Makkley bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Muzokaralar chog'ida O'zbekistonda munosib mehnat tamoyillarini ta'minlash, ish joylarida xavfsiz va adolatli sharoitlarni yaratish, mehnat huquqlarini kafolatlash borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar alohida qayd etildi.

Xalqaro mehnat tashkiloti Bosh direktori Jilber Ungbo kuchli ijtimoiy siyosat, ijtimoiy adolat tamoyillarini muvaffaqiyatli hayotga tatbiq etish bo'yicha O'zbekistonning ilg'or tajribasi dunyo mamlakatlari uchun namuna bo'layotganini inobatga olib, Xalqaro mehnat konferensiyasining navbatdagi 114-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ochib berishi taklifini bildirdi.

"Xalq so'zi".

## "Markaziy Osiyo – Xitoy":

# MINTAQAVIY HAMKORLIKNING SAMARALI MODEL

**1** Markaziy Osiyo va Xitoy ishbilarmon doiralari vakillari tomonidan tashkil etilgan qo'shma korxonalar soni bugungi kunda 6 mingga yaqin. Mintaqaning Xitoy bilan umumiy savdo aylanmasi 2024-yilda 94,8 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda hisob-kitoblarga ko'ra bu ko'rsatkich 100 mlrd. dollarga yetadi.

Markaziy Osiyo "Bir makon, bir yo'l" strategiyasining asosiy elementi bo'lib, uning doirasida Yevropaga yangi transport yo'laklarini yaratish uchun yo'llar, savdo markazlari va logistika infratuzilmasini qurish ishlari jadal olib borilmoqda.

Birinchi "Markaziy Osiyo – Xitoy" sammiti 2023-yil 18-19-may kunlari Sian shahrida bo'lib o'tgan edi. Mazkur sammit Sian deklaratsiyasining imzolanishi, davlat rahbarlarining har ikki yilda bir marta navbatma-navbat Xitoy va mintaqa davlatlaridan birida uchrashuvlar o'tkazish mexanizmini yo'lga qo'yish, shuningdek, idoralarda darajada o'zaro hamkorlikni faollashtirish bilan yakunlandi. Natijada 9 ta ko'p tomonlama hujjat imzolandi va 19 ta hamkorlik platformasi yaratildi.

Xususan, format doirasida qishloq xo'jaligi vazirlari, ichki ishlar, tashqi ishlar, ta'lim va transport vazirlari, bojxona xizmatlari rahbarlari, iqtisodiyot va savdo vazirlarining uchrashuvlari, tahliliy markazlar, axborot agentliklari forumlari va boshqa ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlari ishga tushirildi.

"Markaziy Osiyo – Xitoy" ikkinchi sammitiga tayyorgarlik 2025-yil aprel oyida Olmaotada bo'lib o'tgan tashqi ishlar vazirlarining VI uchrashuvidan boshlandi. Unda Ostona shahrida bo'lib o'tadigan oliy darajadagi sammit kun tartibi muhokama qilindi va imzolanishi rejalashtirilgan hujjatlar kelishib olindi.

Tahlilchilarning aytishicha, bu format mintaqaviy hamkorlikning uzoq muddatli tizimiga aylanishni va'da qilmoqda.

"Markaziy Osiyo – Xitoy" formatining faol ishtirokchisi sifatida O'zbekiston Xitoy bilan ikki tomonlama asosda sheriklikni muvaffaqiyatli davom ettirmoqda. Ikki davlat rahbarlari o'rtasida yaqin, ishonchli siyosiy muloqot yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu ikki tomonlama hamkorlikka barqarorlik va dinamik xususiyat taqdim etmoqda.

2022-yilda O'zbekiston va Xitoy ikki tomonlama munosabatlarni mavsumiy strategik sheriklik darajasiga ko'tardi. Bu maqom yuqori darajadagi o'zaro ishonch, barqarorlik va xalqaro vaziyatdan qat'i nazar, har ikki tomonning yaqindan hamkorlik qilishga tayyorligini aks ettirdi. Mazkur jihat, shuningdek, O'zbekiston va Xitoyning ko'p qirrali munosabatlari

uzoq muddatli asosda mustahkamlash niyatini tasdiqlaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligidagi amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar bunday taraqqiyotning muhim omillaridandir.

Ular mamlakatga yirik xorijiy investorlarni, jumladan, Xitoy korporatsiyalarini jalb qilish uchun sharoit yaratdi. Xususan, Xitoy kompaniyalari yurtimizda energetika, qurilish, mashinasozlik, kimyo, to'qimachilik sanoati va boshqa sohalarda qo'shma loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda.

Bugungi kunda Xitoy O'zbekistonning yetakchi savdo-iqtisodiy hamkoriga aylangan. 2024-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 13 mlrd. dollardan oshdi. 2011-yildan beri hamkorlik bo'yicha O'zbekiston – Xitoy hukumatlararo qo'mitasi faoliyat yuritib kelyapti. Uning 7-majlisi 2024-yil 13-may kuni Toshkentda bo'lib o'tdi. Xitoy O'zbekistonning investitsiyaviy sheriklari orasida ham yetakchi bo'lib qolmoqda. 2024-yilda umumiy qiymati 1,9 mlrd. dollarlik 64 ta loyiha ishga tushirildi, 2017 – 2024-yillarda Xitoy investitsiyalarining umumiy hajmi 23,1 mlrd. dollarni tashkil etdi.

**Hozirgi paytda mamlakatimizda Xitoy investitsiyasi ishtirokidagi 3,5 mingdan ortiq korxonalar bor. Ulardan 220 tasi 2025-yilda tashkil etilgan. Parlamentlararo va hududlararo hamkorlik ham faol rivojlanib, madaniy-gumanitar almashinuvlar kengaymoqda. Bu o'zaro ishonch va har tomonlama aloqalarni chuqurlashtirishga intilishning yuksak darajasini ifodalaydi. Buning uchun ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi tarixiy rishtalar mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilaypti.**

O'zbekiston – Xitoy munosabatlarning konstruktiv xususiyati butun mintaqaviy kun tartibi uchun ijobiy tendensiyani belgilab beradi, sheriklik munosabatlari mustahkamlashda muhim o'rin tutadi, shuningdek, "Markaziy Osiyo – Xitoy" formatidagi hamkorlik samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Ostona shahrida bo'lib o'tadigan "Markaziy Osiyo – Xitoy" sammiti mintaqaning eng dolzarb va muhim masalalar bo'yicha konsolidatsiyasiga yangi turtki berishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbarining mazkur sammitda ishtirok etishi esa O'zbekiston ishonch, yaxshi qo'shnihilik muhitini mustahkamlash va dolzarb mintaqaviy hamda xalqaro muammolarni hal etishda o'zaro maqbul yondashuvlarni konstruktiv izlashga sidiqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

"Dunyo" AA.

# TINCHLIKNI TANISH

**1** AQSHning birinchi Prezidenti, "Millatning ishonchli otasi" degan unvonga sazovor bo'lgan Jorj Vashington Angliya vakillari bilan muzokaralar olib borib, ikki davlat o'rtasida kelib chiqish arafasida turgan urushning oldini olishga harakat qiladi. U: "Keling, masalani qurol bilan emas, aql bilan yechaylik. Urush ochish har ikki tomon uchun ham eng so'nggi choradir", deya ta'kidlagandi.

Oradan necha asrlar o'tgan bo'lishiga qaramasdan bu tamoyil hali ham o'z mohiyatini yo'qotgan yo'q. Aslida bosqich, aql, idrok, tenglik bilan hal etilishi mumkin bo'lgan masalalar urushlarni keltirib chiqaryapti. Nohaq qon to'kilishiga olib kelyapti.

Katta va qudratli davlatlarning bosimi, doimiy aralashuvi, kuchsiz davlatlarni o'ziga bo'ysundirish harakatlari ham urushlarning kelib chiqishiga turtki bo'lmoqda.

Jahon tarixida "Monro nazariyasi" deb nom olgan tarixiy-siyosiy hujjati yaratgan AQSHning yana bir Prezidenti Jeyms Monro: "Tinchligimiz, kelajagimiz uchun o'zimiz kurashmasak, kim kurashadi?" deb aytdi. U tomonidan ilgari surilgan nazariyaning asosiy mazmuni Amerika ustidan Yevropa hukmronligining har qanday ko'rinishiga qarshi chiqishdan iborat bo'lgan: "Amerika qit'asi hech bir Yevropa davlati tomonidan mustamlaka makoni sifatida ko'rilmasligi kerak. Bunday urinishni biz o'z tinchligimiz va xavfsizligimizga nisbatan tahdid deb hisoblaymiz". Monro nazariyasi AQSHning hududiy jihatdan daxlsiz davlat ekanini yana bir bor mustahkamladi. Tashqi



dunyo mamlakatlari bilan teng huquqli aloqaga kirishish imkonini berdi.

Mustamlaka makoni sifatida qarash vasvasasi bugun ham avj olmoqda. Quldor hamisha itoatni istaydi. Bu jirkanch illat hali ham borligi bizni hushyorlikka undashi zarur. Bugungi urushlar ostida mana shu yovuz maqsadlar ham yashiringan.

O'zbekistonning tinchligini ta'minlash borasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev keyingi 9 yilda misli ko'rilmagani tarixiy qadamlarni tashladi. Avvalo, mamlakatning ichki tinchligiga alohida ahamiyat qaratildi. Bu, avvalo, xalqning roziligiga erishish, inson qadriini ulug'lash, xalq farovonligiga intilish, davlat xizmatchilarining tom ma'noda xalq xizmatchisiga aylanishida namoyon bo'ladi. Qolaversa, "Qo'shning tinch – sen tinch" oltin qoidasiga, butun dunyo uchun ochiqlik siyosatiga amal qilindi. O'zgarlar manfaati shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yildi. Qon-qardoshlik, tarixiy do'stlik, yaqin qo'shnihilik an'analariga sadoqat mustahkamlandi.

O'tgan davr O'zbekistonning tinchlikparvar siyosati to'g'ri ekanini isbotladi. O'zbekiston nafaqat Markaziy

Osiyoda, balki butun Osiyo, Yevropa, Amerika qit'asida ham tinchlik tarafdori sifatida tanildi va tan olindi. O'zbekiston xalqaro tuzilmalar doirasida ham tinchlikparvar mamlakat sifatida e'tirof etilmog'da.

**Men bugungi notinch dunyoga, davlat rahbarlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni ibrat qilib ko'rsatmoqchiman.**

Bugun O'zbekiston tinch taraqqiyot yo'lidan ketmoqda. Bu borada u do'stlarini ham o'z ortidan ergashtirishga harakat qilyapti. **Markaziy Osiyo tinchligi tashabbuskori – O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevdir.** Bu faqat mening fikrim emas, balki jahon hamjamiyati va xalqaro ekspertlarning haqqoniy xulosasi.

Unutmashimiz kerakki, **tinchlik bor joyda** bunyodkorlik ham, islohotlar ham, farovonlik ham bo'ladi. **Tinchlik yo'q joyda** esa faqat oh-faryod, ko'z yosh, g'am-kulfta... Bugun xalqimiz zimmasida ulkan mas'uliyat turibdi – Vatanimiz tinchligini ko'z qorachig'idek asrash va unga bo'lgan har qanday tahdidga qarshi kurashish.

**Tinchlik – muzeyga qo'yiladigan eksponat emas.** U har bir daqiqada, har birimizdan kurashishni, ogohlilikni, hushyorlikni talab etadi. Biz hammadan ham ko'ra xiyonatkorlardan, vatanfurushlardan ehtiyot bo'lishimiz kerak. Tashqi dushman, ichki dushman bilan birlashadi degan qarash bor. Vatanimiz tinchligi biz uchun hayot-mamot masalasidir.

**Men har bir yurtdoshimiz Vatanimiz tinchligini Prezidentimiz darajasida**

**yaxshi ko'rishi va qadrlashini istayman. Tinchlikka bo'lgan tahdidlar bugun har qachongidan ham kuchayganini unutmasligimiz kerak.**

O'zbekiston tinchlik borasida mustahkam pozitsiyaga ega. Biz chorak asr davom etgan urush tahdidini o'z tanamizdan o'tkazganmiz. U kunlarning qaytishini hech qachon istamaymiz. Shu bois O'zbekiston rahbari qat'iy siyosiy irodasini namoyon qilib, mamlakatimiz a'zo bo'lgan xalqaro tashkilotlar faoliyatida ham, avvalo, tinchlik bo'lishi, har qanday ziddiyatlar tinch yo'l bilan hal etilishi tarafdori bo'lib kelmoqda.

Toshkentda yana bir tinchlik tongi o'tdi. Nafaqat Toshkentda, balki ona Vatanimizning har bir go'shasida tinchlik tonglari otadi. Onalar go'daklarga alla aytadi. Muazinning azon chaqirig'i eshitiladi. To'yg'a o'tlanayotgan oqsoqollarimiz safi ko'rinadi. Nuroniy otalar dasturxon boshida: "**Avvalo, yurtimiz tinch bo'lsin!**", deya duo qiladi.

Men "**Millatni tanish**", "**Vatanni tanish**" so'zlarining yoniga "**Tinchlikni tanish**" bebaho kalomini ham qo'shib qo'yimoqchiman. Tinchlikni yaxshilab taniylik. Tinchlik oldidagi mas'uliyatimizni unutmaylik. Tinchlikni asrab-avaylashga, qadrlashga o'rganaylik. Bu bizning ham ajdodlarimiz, ham avlodlarimiz oldidagi muqaddas burchimizdir.

**Rustam XOLMURODOV,**  
**Samarqand davlat universiteti rektori,**  
**O'zbekiston Respublikasi fan arbobi,**  
**Oliy Majlis Senati a'zosi.**

## Senat qo'mitasida

# DOIMY KOMISSIYALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH – E'TIBOR MARKAZIDA



*Oliy Majlis Senati tomonidan mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari a'zolari bilan hamkorlikni kuchaytirish, ularning bilim va malakasini oshirish, qonunchilikdagi yangiliklardan xabardorligini ta'minlash hamda joylarda qabul qilinayotgan qarorlarning samaradorligini oshirish maqsadida amaliy tadbirlar tashkil etilmoqda.*

Shu maqsadda 16-17-iyun kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'rqorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat Kengashlari doimiy komissiyalari raislari va mahalliy Kengash kotibiyatlari xodimlari uchun Senat qo'mitalarida hamda Hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazida amaliy o'quv mashg'ulotlari o'tkazilmoqda. Bu mahalliy vakillik

organlarini parlament faoliyatiga yanada yaqinlashtirish, qonun ijodkorligi jarayonida ularning ishtirokini faollashtirishga qaratilgan.

Amaliy tadbirlar davomida Senat qo'mitalari va markaz faoliyati bilan tanishish, mahalliy darajadagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda hamkorlikni kuchaytirish, Kengashlarning qaror qabul qilishdagi ta'sirini oshirish,

joylardagi muammolarni qonunchilik orqali hal etish imkoniyatlarini muhokama qilish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Seminar ishtirokchilari mahalliy Kengashlar deputatlarini qonun loyihalari muhokamasiga jalb etish, ularning fikr va takliflarini inobatga olish, qonun hujjatlarida hududiy xususiyatlarni aks ettirishga oid ko'nikmalarga ega bo'ldi.

Tadbirlar doirasida Senatning Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiyasi raisi Anvar To'ychiyev boshchiligidagi o'tkazilgan uchrashuvda muhim taklif va tavsiyalar bildirildi.

Xususan, Senat qo'mitalari hamda mahalliy hokimiyat vakillik organlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, mahalliy ijro hokimiyati ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish, doimiy komissiyalar faoliyatini takomillashtirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

"Xalq so'zi".

## Uchrashuv

# DO'STLIK GURUHLARI ISHI FAOLLASHTIRILADI

*Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov Gruziyaning O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi David Kotariya bilan uchrashdi.*

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Gruziya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlari izchil rivojlanayotgani, xususan, parlamentlararo

hamkorlik kengayib borayotgani alohida ta'kidlandi. Ikki mamlakat qonunchilik organlari o'rtasidagi barqaror muloqot amaliy hamkorlikni

kengaytirishga xizmat qilayotgani e'tirof etildi.

Parlamentlar do'stlik guruhlarining o'rni va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratildi. Parlamentlararo aloqalarni yanada kuchaytirish maqsadida do'stlik guruhlari ishini faollashtirish, jumladan, onlayn uchrashuvlar, o'zaro tashriflar va qonunchilik sohasida tajriba almashish zarurligi qayd etildi.

## KENG KO'LAMLI ISLOHOTLAR –

# AYOLLAR TADBIRKORLIGINING MUVAFFAQIYATI GAROVI

*Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orziqul Qozixonova Malayziya xalqaro tadbirkor ayollari uyushmasi prezidenti Norazizah binti Borhan bilan uchrashuv o'tkazdi.*

Uchrashuv davomida yoshlar hamda xotin-qizlarning turli sohalardagi huquq va imkoniyatlarini kengaytirish borasidagi masalalar muhokama markazida bo'ldi.

Shuningdek, tomonlar ayollar tadbirkorligi sohasidagi hamkorlikning muhim jihatlari va istiqbolga mo'ljallangan rejalarga e'tibor qaratdi. Senator mamlakatda keng ko'lamli islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini ta'kidladi. Ushbu o'zgarishlar davlat

siyosiy-huquqiy poydevorini mustahkamlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlash hamda ularga qulay sharoit yaratishga qaratilgan.

O'z navbatida, Malayziya xalqaro tadbirkor ayollari uyushmasi prezidenti O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni e'tirof etdi. Ayollarning tadbirkorlik faoliyatida ishtirokini

kengaytirish hamda ularning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishda davlatning roli ortib borayotganini ta'kidladi. Uchrashuvda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturlari va loyihalarni amalga oshirish uchun Malayziya hamda O'zbekiston o'rtasidagi sheriklikni yanada rivojlantirish muhimligi qayd etildi.

"Xalq so'zi".

## Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

## AHOLINING KONSTITUTSIYAVIY ERKINLIK LARI KAFOLATI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

**Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig'ilishida migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini takomillashtirish, avtomobillardan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratishga qaratilgan qonun loyihalari muhokamalar markazida bo'ldi.

Jumladan, "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi munozaralari qizg'in kechdi.

U bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga "ogohlantirish" jazo chorasini kiritish va ijtimoiy xavfliligi kam bo'lgan yo'l harakati xavfsizligi bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun ogohlantirish jazosini qo'llashni nazarda tutuvchi

muammolarning bartaraf etilishiga qaratilganini qayd etib, uni qo'llab-quvvatlash lozimligini bildirdi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

**O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi** yig'ilishida davlat organi yoki uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarori yoki harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararni o'rni qoplash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 55-moddasiga muvofiq, har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan

yuzasidan bir qator aniqlashtiruvchi savollar o'rtaga tashlandi.

Savol-javoblardan so'ng fraksiya a'zolari ushbu hujjat fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga qaratilganini inobatga olib, uni qo'llab-quvvatlandi.

**O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig'ilishida "Davlat organining yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori yoki harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararni o'rni qoplash to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan yetkazilgan zararni o'rni kompensatsiya qilish, hududiy kompensatsiya jamg'armasi hisobidan qoplab berilgan mablag'larni keyinchalik aybdor, deb topilgan davlat organining mansabdor shaxsidan to'liq miqdorda regress tartibida undirib olish, hududiy kompensatsiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish tartibi belgilanmoqda.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasining mazmun-mohiyati bo'yicha partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, bir qator takliflar berdi. Xususan, fraksiya a'zosi Shuhrat Yakubov loyihaing konsepsiyasi dolzarb ekanini va u partiya Saylovoldi dasturida aks etganini ta'kidlab, ayrim normalar bo'yicha aniqlashtiruvchi savollar berdi.

Deputat asosiy kompensatsiya to'lovlari hududiy kompensatsiya jamg'armalari hisobidan to'lanishi, zaxira jamg'armalari esa hududlarda shakllantirilishi rejalashtirilayotganini qayd etib, lekin markaziy davlat organi yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan qarorlar oqibatida yetkazilgan zararlari qaysi mablag' hisobidan qoplanishi kerakligiga oydinlik kiritish zarurligini ta'kidlab.

Qonun loyihasi bo'yicha fraksiyaning boshqa a'zolari ham o'z fikr-mulohazalari va takliflarini bildirib, uni ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida berilgan tavsiyalar asosida qonun loyihasini takomillashtirish lozimligini bildirdi.

**O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi** yig'ilishida migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini takomillashtirish, tafovut hamda ziddiyatlarni bartaraf etish, davlat organi yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori yoki harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararni o'rni qoplash to'g'risidagi qonun loyihalari muhokama qilindi.

Fraksiya a'zolari ushbu qonun loyihalarning har biriga alohida e'tibor bilan yondashib, ularning mazmun-mohiyati, ijtimoiy ahamiyati va amaliy natijalarini chuqur tahlil etdi.

Xususan, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga tafovut hamda ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartirish va

mehnat huquqlarini himoyalash, migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish, migratsiya sohasida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmogda.

Ushbu sa'y-harakatlarga qaramay migratsiya sohasida huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilash, sohadagi xizmat ko'rsatish jarayonlarining



qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokamasi qizg'in kechdi.

Qonun loyihasi bilan o'rmon

fondi yerlarini onlayn-auksion orqali foydalanishga berish, shuningdek, yig'img'lar faqat qonunlar bilan belgilanishini nazarda tutish belgilab qo'yilmogda. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash vakolatini Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga o'tkazish taklif etilyapti.

Muhokama chog'ida fraksiya a'zosi Qizilgul Qosimova boshqa yo'nalishlardagi qonunlarda tafovutlar borligini, ularni ham tezroq bartaraf etish lozimligini, deputatlar bunday tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashini bildirib, yordamga tayyorligini ma'lum qildi. Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

**O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi** yig'ilishida "Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini takomillashtirish, tafovut hamda ziddiyatlarni bartaraf etish, davlat organi yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori yoki harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararni o'rni qoplash to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning

shaffofligini ta'minlash, xususiy bandlik agentliklari faoliyatini tartibga solish, ularning mas'uliyatini kuchaytirish zarurati yuzaga kelyapti.

Mazkur qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga, "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi va "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunlarga Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Migratsiya agentligining vakolatlarini aniqlashtirish, xususiy bandlik agentliklarining huquq va majburiyatlarini kengaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmogda.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlar tomonidan berilgan ko'plab takliflar e'tiborga olingani va hujjat matnida aks etganligini ta'kidlashdi. Shu bilan birga, loyihadagi ayrim normalar yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar, qator takliflar berildi.

Muhokamadan so'ng fraksiya a'zolari mazkur hujjat xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan mamlakatimiz fuqarolarining huquqlarini himoya qilishga qaratilganini hisobga olib, uni qo'llab-quvvatlandi.

"Xalq so'zi".



o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmogda.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari Erkin Zohidov, Nodir Jumayev va Muqaddas Ahmedova loyihadagi nazarda tutilayotgan yangiliklar yuzasidan o'z fikr-mulohazalari, takliflarini bildirdi. Shu bilan birga, qonun loyihasidagi ayrim normalar bo'yicha aniqlashtiruvchi savollar o'rtaga tashlandi. Qonun tashabbuskorlari ko'tarilgan masalalar yuzasidan batafsil ma'lumot berib o'tdi.

Fraksiya a'zosi Ruslan Sobirov loyihaing ahamiyatiga to'xtalar ekan, ushbu hujjat avtomobilardan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish, sohada fuqarolarni qiynab kelayotgan ayrim

sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan. Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararni o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega.

Bugungi kunda davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari va xizmatchilarining qonunga xilof deb topilgan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan va sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan aniqlangan zararlari va ma'naviy ziyonlarni qoplashni tartibga solish yagona qonun hujjati bilan tartibga solinmasdan kelinayotgan edi.

Yig'ilishda qonun loyihasi

## VAZIFALAR FIDOYILIKNI TALAB QILADI

*Kecha Prezidentimiz raisligida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi, aholini o'ylantirayotgan masalalarga yechim topish yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi mamlakatimizdagi davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish, fuqarolar manfaatlariga xizmat qiluvchi mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish va yangi ish uslublarini joriy etish borasidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.*

## Munosabat

Binobarin, unda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning borishi, mavjud muammolar, ularning yechimi bo'yicha aniq vazifalar muhokama qilindi. Bir qator kamchiliklar ochiq-oydin tilga olinib, mutasaddi idora va rahbarlarga aniq ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishning asosiy xulosalaridan biri shundaki, hozirgi kunning eng katta to'siqlaridan biri – mahalliy darajadagi byurokratik to'siqlar, infratuzilma yetishmovchiligi va idoralar o'rtasidagi muvofiqlikning yetarli emasligi. Qumqo'rg'on tumanidagi temir yo'l shlagbaumisi misolida ko'tarilgan masala, "Termiz – Sariosiyo" temir yo'lining elektrlashtirilmagani kabi muammolar nafaqat hududiy rivojlanish, balki fuqarolar turmush tarziga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bunday holatlar mas'ul tashkilotlardan faqat rejalar emas, amaliy natijalar, o'z vaqtida bajarilgan vazifalar talab qilayotganini ko'rsatadi. Gaz ta'minotidagi uzilishlar, elektr energiyasidagi muammolar esa davlat rahbari tomonidan alohida e'tiborga olindi va bu sohada tezkor choralar ko'rish talab etildi.

Prezidentimiz fuqarolar murojaatlariga to'g'ri va tezkor javob berish kerakligini bir necha bor ta'kidlab. Ayniqsa, xalq muammolarini eshitish va ularga yechim topish – har bir rahbarning doimiy burchi ekanligi eslatib o'tildi. Tizimlardagi muammo va kamchiliklar ko'rsatilishi bilan birga, ularning yechimi bo'yicha ham aniq chora-tadbirlar belgilab berildi. Xususan, birinchi o'rinda davlat idoralarning hisobdorligi va ochiqligi bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, miqyosi katta bo'lgan loyihalar va davlat xaridlarida shaffoflikni ta'minlash, axborotning ommaviylikni va jamoatchilik nazoratini joriy qilish zarurligi qayd etildi.

Ikkinchi jihat – davlat xizmatchilarining samarali faoliyatini ta'minlash uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarurati. Misol tariqasida, elektron hukumat tizimini takomillashtirish va davlat xizmatlarini onlayn ko'rsatishni kengaytirish kabi choralar ko'rilmoqda. Bu fuqarolarning davlat bilan munosabatlarini yangillashtiradi va byurokratiyani kamaytiradi.

Uchinchi muhim vazifa – jamoatchilik bilan faol muloqotni tashkil etish. Prezidentimiz jamoatchilik fikrini tinglash, mahalliy aholi muammolari va takliflarini qabul qilish

uchun yangi platforma va mexanizmlar yaratish vazifasini qo'ydi. Bu esa davlat idoralari va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Videoselektor yig'ilishida kadrlar salohiyatini oshirish masalasi ham alohida e'tibor qaratildi. Davlat idoralari va mahalliy hokimliklar xodimlarining malakasini oshirish kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tizimda mavjud kamchiliklar inobatga olinib, Xalq qabulxonalarida faoliyat yuritgan barcha xodimlar ishi salbiy baholandi. Bu maskanlarni fuqarolar muammolarini hal etishda chinakam mas'uliyatni zimmasiga oladigan fidoyi va salohiyatli kadrlar bilan to'ldirish vazifasi qo'yildi.

Yana bir muhim jihat, endilikda Xalq qabulxonalariga to'g'ridan-to'g'ri viloyat va tuman hokimlari rahbarlik qiladi. Har bir hokim kunlik ish faoliyatini ana shu joyda – xalq bilan bevosita muloqot qilish, ularning muammo va takliflarini eshitishdan boshlaydi.

"Hokimlar yaxshi anglab olishlari lozim – bugun yuzaga chiqqan muammo etaga qoldirilmaydi. Hech qanday murojaat boshqa idoraga yo'naltirilmagan, shu yerning o'zida hal etiladi", dedi davlatimiz rahbari.

Mazkur jarayonni samarali tashkil qilish maqsadida tuman hokimlarining vakolatlari kengaytirilib, zarur qo'shimcha resurslar ajratilishi qayd etildi. Bu orqali Xalq qabulxonalaridagi rahbarlik tizimi takomillashtirilib, muammolarni tez va samarali hal etish imkoniyati yaratildi. Hokimlarning bevosita joyida aholi murojaatlarini eshitishi va qaror qabul qilishi mas'uliyatni oshiradi. O'z navbatida, byurokratiyani kamaytiradi

hamda fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilaydi. Vakolatlar kengaytirilishi va qo'shimcha resurslar ajratilishi, muammolar hal etilishini ta'minlaydi.

Ushbu topshiriqlar va yangicha ish uslublari davlat boshqaruvining shaffofligi va samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'ladi. O'z navbatida, davlat boshqaruvi tizimidagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlarni amalga oshirishda biz, deputatlar ham faol ishtirok etishimiz lozim. Ya'ni yangi topshiriqlarning bajarilishi bo'yicha doimiy monitoring o'tkazish, davlat idoralari faoliyatida ochiqlikni ta'minlash yuzasidan qonunchilik tashabbuslari bilan chiqish muhim vazifalardan sanaladi.

Shu bois saylovchilarimiz bilan muloqotda bo'lib, ularning muammolari va takliflarini aniqlab, davlat idoralarga samarali yechimlar taklif qilishimiz kerak.

Tanqidiy ruhda o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash orqali mamlakatimizda ochiqlik, innovatsiya hamda demokratik boshqaruv prinsiplari yanada mustahkamlanadi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Shu nuqtayi nazardan, har bir rahbar, jumladan, biz, deputatlar ham belgilab berilgan zalvarli vazifalar ijrosini ta'minlashda yanada faol va tashabbuskor bo'lishimiz kerak. Zotan, ushbu jarayonda mas'uliyatni his etib, har bir topshiriq ijrosi ustidan nazorat o'rnatib, xalq manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish barchamizning asosiy vazifamizdir.

**Shahnoza XOLMAHAMATOVA,**  
Oliy Majlis  
Qonunchilik palatasi deputati.

## 17-iyun – Jahon cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash kuni



*Ma'lumki, har yili 17-iyun – Jahon cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash kuni sifatida nishonlanadi. Bu sana BMTning Cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilingani munosabati bilan tanlangan.*

Konvensiya atrof-muhit va rivojlanishni yerdan barqaror foydalanish bilan bog'laydigan yagona xalqaro hujjatdir. Unga a'zo 197 ta davlat (shundan cho'llanishdan jabrlangan 169 ta davlat) yer unumdorligini saqlash va tiklash hamda eng zaif ekotizimlar joylashgan qurg'oqchil, yarimqurg'oqchil va quruq subnam hududlarda qurg'oqchilik oqibatlarini yumshatish uchun birgalikda ishlaydi.

O'zbekiston Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida birinchi qatorida ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan. Qurg'oqchilik ekinlar hosildorligi keskin pasayishi, o'rmon yong'inlari va suv tanqisligi oqibatida inson hayotining izdan chiqishiga sabab bo'luvchi tabiiy ofatlardan biridir. 2050-yilga borib qurg'oqchilik dunyo aholisining to'rtdan uch qismiga ta'sir etishi mumkinligi taxmin qilinmoqda. Bu esa unga qarshi dunyo hamjamiyati birgalikda kurashishi kerakligini anglatadi.

Cho'llanish va qurg'oqchilik asoratida ekin maydonlari yaroqsiz ahvolda kelib qolmoqda. Yer degradatsiyasiga iqlim o'zgarishi ham sabab bo'lyapti. Achinarlisi, iqlim migratsiyasi kuchayib, qurg'oqchilik va cho'llanish sabab millionlab odamlar o'z uylarini tashlab, boshqa joylarga ko'chishga majbur bo'lmoqda.

Ushbu muammolar mamlakatimizga ham begona emas. Orol dengizi fojiasi oqibatida yurtdoshlarimiz suv tanqisligi bilan bog'liq tuproq sho'rlanishi, ko'chib yuruvchi qumlar tarqalish xavfi, chang bo'ronlari va qurg'oqchilik muammolariga duch kelyapti. Iqlim o'zgarishi va doimiy muzliklarning erish jarayonining tezlashishi natijasida suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib bormogda.

Shu nuqtayi nazardan, yurtimizda cho'llanish va qurg'oqchilikning oldini olish bo'yicha manzilli va tizimli ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi ro'yobga chiqarilayotgani, qurigan Orol hududiga saksovullar ekilayotgani, ariqlar betonlashtirilayotgani, tomchilatib sug'orish joriy qilinayotgani, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va barqarorligini ta'minlash, foydalanishdan chiqqan yer maydonlarini qayta foydalanishga kiritish, irrigatsiya tizimlari, gidrotexnik inshootlari faoliyati samaradorligini oshirish choralarini ko'rilayotgani muammoni yumshatishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2025-yil 30-maydagi "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida hamda o'rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ushbu yo'nalishda yagona davlat siyosatini yuritish va muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etayotir. Binobarin, mazkur Farmon "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi tadbirlar samaradorligini oshirish, o'rmonlar va yashil hududlar maydonini kengaytirish, ulardan samarali foydalanish hamda cho'llanishga qarshi kurashishni tizimli amalga oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Qayd etish kerak, yurtimizda har yili "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida yashil maydonlar kengaytirilmogda. Xususan, Orol dengizining qurigan tubida keyingi yillarda qariyb 2 million gektar maydon o'rmonlashtirilgani hamda o'rmon fondi yerlarining maydoni mamlakat umumiy maydonining 25 foiziga yoki muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonining 14 foizga yetkazilgani nafaqat O'zbekistonning milliy, balki mintaqa davlatlari manfaatlariga uchun ham xizmat qilmoqda.

Yanada ahamiyatli jihati – Prezidentimizning umumbashariy ekologik muammolarni hamkorlikda hal etish borasidagi tashabbuslari turli xalqaro anjuman va uchrashuvlarda ilgari surilayotgani, ular xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilayotganidir. Bugungi kunda davlatimiz rahbarining atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasidagi 4 ta tashabbusi doirasida BMTning maxsus rezolyutsiyalari qabul qilingani bunga yaqqol misoldir. Ular, o'z navbatida, dunyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish umummilliy harakatga aylangan. Yurtimizning har bir fuqarosi ushbu umummilliy harakatning tom ma'nodagi ishtirokchisiga aylinishi shart. Shundagina biz cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashib, ona tabiatni asrab qolamiz.

**Gulchehra JO'RAYEVA,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi  
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish  
masalalari qo'mitasi a'zosi.

**Farg'ona viloyatining Furqat tumanidagi Qo'qonboy mahallasida hunarmandchilikka ixtisoslashtirilgan maktab-internat ochildi.**

## SURXONDARYO

## tomonlarda

## Yirik korxonalar ishga tushirilish arafasida



Surxondaryoda faqat agrar tarmoqni rivojlantirish mumkin, boshqa soha va tarmoqlar esa istiqbolli deganlar qattiq yangilashadi. So'nggi yillarda vohada korxonalar soni ortib, sanoat ham ravnag topmoqda.

Viloyatda 2017-yili 25 674 korxonalar faoliyat yuritgan bo'lsa, ayni paytda ularning soni 50 mingtaga yaqinlashib qoldi. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar esa 500 tadan ko'p. O'tgan yili yalpi hududiy mahsulot hajmi 2023-yildagiga nisbatan 105,9 foizga o'sib, 54,4 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, shundan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 14,9 trln. so'mga yetdi.

Bu ko'rsatkichlarni davlatimiz rahbari topshirig'i asosida "Termiz" erkin iqtisodiy zonasida barpo etilayotgan zavod xomashyosidan mineral vata ishlab chiqarish bazi yana oshirishi, shubhasiz. 26 mln. dollarlik investitsiya kiritilishi va 320 ta yangi ish o'rni yaratilishi ko'zda tutilgan ushbu yirik loyihani "Surxon sendich" MCHJ amalga oshirmoqda. Korxonalar ishga tushgach yiliga 4,5 mln. dollarlik mahsulot eksport qilinadi.

## Ehtiyojmand oilalarga yangi uy qurib beriladi

Ijtimoiy himoya milliy agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi tomonidan vohada og'ir turmush sharoitida yashab kelayotgan 141 nafar xotin-qizning manzilli ro'yxati shakllantirildi. Viloyat hokimligi esa ularning 28 tasiga yangi uy qurib beradigan, 113 ta oilaning turarjoyini tubdan ta'mirlaydigan bo'ldi.

Bu boradagi xayriy amallarga hozirdanoq kirishildi. Bajaruvcilar, nazorat qiladigan mas'ullar birlashtirildi. Viloyat rahbarining o'zi dastlabki uyning poydevoriga tamol toshini qo'yib ham berdi.

– Qiyin sharoitda yashayotgan edik, – deydi Termiz tumanidagi Qoraxon mahallasida yashovchi Nasiba Rahmonqulova. – O'ildagi iqtisodiy shikast sababli yangi uy qurishga imkoniyatimiz yetmayotgandi. Bizga shinam, zamonaviy uy qurib beriladigan bo'ldi. Bunday g'amoxlik uchun davlatimizdan minnatdorman.

Ushbu loyiha mamlakatimizda inson qadri ulug'lanayotgani, aholining ehtiyojmand qatlami, xotin-qizlar har tomonlarga qo'llab-quvvatlanayotganining namoyonidir.



## "Sangardak" – 913 mlrd. so'mlik turistik markaz

Yaqin kelajakda yurtdoshlarimizning sayru sayohat uchun chet ellarga borishiga hojat qolmaydi. Turizm qishlog'i – Sangardak hududidagi 615 gektar maydonda umumiy qiymati 913,3 mlrd. so'm bo'lgan "Sangardak" turistik markazi barpo etilmog'ida.

Sangardakning betakror tabiati, osmono'par tog'lari, musaffo havosi, mashhur sharsharasi, madaniy meros obyektlari allaqachon dunyoga tanilgan. Bu yerga nafaqat mamlakatimiz, balki Xitoy, Pokiston, Hindiston, Belarus, Rossiya, Yaponiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi davlatlardan har kuni uch mingdan ziyod sayyohlar tashrif buyuradi.

"Sangardak" turistik markazida 21 ta restoran, kafe va barlar, 296 ta savdo nuqtasi, 4 ta uch yulduzli, 2 ta besh yulduzli mehmonxona, 10 ta mehmon uyi, sanatori, madaniy hordiq maskani, 1,6 km. uzunlikdagi dor yo'li, "zipline" va piknik hududlari qurilmog'ida.

E'tiborlisi, Sangardak mahallasiga tutash hudud – Nilu mahallasini ham turizm qishlog'iga aylantirish loyihalari boshlandi.

Bu kabi sa'y-harakatlar Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini oshiradi.

Farhod ESONOV  
("Xalq so'zi").

## O'ZBEKISTON

O'zbekistonga xalqaro hamjamiyatning qiziqishi kun sayin ortib boryapti.

Yaqinda poytaxtimizda bo'lib o'tgan IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi mamlakat iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Ochiq'ini aytganda, global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga jiddiy tahdidlar tobora kuchayib, geosiyosiy jarayonlar ko'z o'ngimizda shiddat bilan o'zgarayotgan, jahonda qurollanish poygasi yana avj olgan bir pallada investitsiyalarni jalb etish oson ish emas. Vaholanki, iqtisodiy inqiroz asoratlar, moliyaviy resurslar taqchilligi tufayli jahon yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari ketma-ket uch yil davomida pasaymoqda. Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, xalqaro huquq normalari va diplomatiya kuchi zaiflashmoqda. Eng achinarlisi, insoniyat uchun dolzarb muammolar – oziq-ovqat xavfsizligi, kambag'allik, iqlim o'zgarishlari kabi masalalarga e'tibor kamaymoqda. Shu bois xalqaro investitsiya forumida davlatimiz rahbari dunyoda tinchlik, adolat va inson qadriga bo'lgan umumiy ishonchni tiklashga, mojarolarni faqat diplomatiya yo'li bilan yechishga chaqirdi.

## INVESTORLARNI CHORLAMOQDA

## Ilg'or g'oyalar, aniq maqsadlar sari

Nufuzli anjumanda Prezidentimiz investitsiyalar uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lgan turli sohalarni taklif etdi. Birinchisi – "yashil" iqtisodiyot sohasi. Yaxshi bilimlik, O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror, toza, ekologik bezarar energiya resurslari bilan ta'minlash uchun aynan "yashil" energetikani rivojlantirishga astoydil kirishgan.

O'tgan qisqa davrda mazkur sohaga qariyb 6 mlrd. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya kirib keldi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 59 mlrd. dan 82 mlrd. kilovatt-soatga yetdi. Keyingi besh yilda bu ko'rsatkich 120 mlrd. kilovatt-soatdan oshib, "yashil" energiya ulushi 54 foizga yetkaziladi. Ayni paytda Yevropaga "yashil" energiya quvvatlarini eksport qilish ham rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, elektr tarmoqlarini yangilashga ham 4 mlrd. dollar jalb qilish, joriy yilda Samarqandda, kelgusi yildan yana 8 ta hududda elektr tarmoqlarini xususiy sheriklikka berish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, ilk bor "yashil" sertifikat va uglerod birliklari savdosi boshlandi. Shu yil global uglerod bozorlariga qo'shilib, "Yashil O'zbekiston" iqlim investitsiyalari platformasini yaratish maqsad qilingan. Demak, mazkur maqsadlarga erishish uchun xorijiy investitsiyalar suv bilan havodek zarur.

Ikkinchi yo'nalish – raqamli texnologiya va sun'iy intellekt sohasi. Ma'lumki, butun dunyoda mazkur yo'nalishlarda raqobat boshlangan. Bugungi kunda u iqtisodiyotning drayveriga aylanayotganini mamlakatimizda shu yilning o'zida IT eksporti 1 mlrd. dollarga yetgani ham isbotlaydi. 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 5 karra oshirishga kirishilgan. Buning uchun yaqin besh yilda xususiy investorlar bilan birga quvvati 500 megavattdan ziyod 20 ta "data markaz" barpo etiladi. Shuningdek, boy tariximiz, azaliy qadriyatlarimiz hamda yangi kreativ g'oyalarni mujassam etgan sun'iy intellektning milliy modeli ishlab chiqiladi. Bu tizim samaradorligini ta'minlash uchun davlat rahbari boshchiligida "Bir million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihasi allaqachon boshlangan. Xalqaro investorlar ko'magi bilan O'zbekiston nufuzli IT va "Fintech" xabiga aylanishi shubhasiz.

Uchinchi yo'nalish – moliyaviy tizim va texnologiyalar. Bank, moliya, sug'urta, kapital bozori sohalarini keyingi rivojlanish bosqichiga olib chiqish maqsadida O'zbekistonda Moliyaviy barqarorlik kengashi tashkil etiladi, Markaziy bankda kiberxavfsizlik va moliyaviy texnologiyalar platformalari ishga tushiriladi. Milliy qayta sug'urtalash kompaniyasi va Global qayta sug'urtalash raqamli platformasi yaratildi. Startaplar uchun muqobil moliyaviy instrument – venchurlik bizda tez rivojlanib boryapti. "Muqobil investitsiya jamg'armalari to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Hamkorlar bilan birgalikda kelgusi besh yilda venchur va boshqa muqobil sarmoyalar hajmini 1 mlrd.

dollarga olib chiqish mumkin.

To'rtinchi yo'nalish – nodir metallarni qazib chiqarish sohasi. Ta'kidlash kerakki, bugungi "to'rtinchi sanoat inqilobi" "texnologik mineral"ga talabni bir necha karra ko'paytirmoqda. O'zbekistonda volfram, molibden, magniy, litiy, grafit, vanadiy, titan va boshqa minerallarning katta zaxirasi aniqlangan. Umuman, yer osti boyliklarimizning salohiyati 3 trln. dollarga baholangan. Mintaqamizning minerallardan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish "xabi"ga aylanishi uchun Toshkent va Samarqand viloyatlarida "Kelajak metallari texnoparki" bunyod etilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari geologiya-qidiruv ishlarida boshlab, tayyor mahsulot zanjirini yo'lga qo'ygan investorlarga o'n yil davomida renta solig'ini qaytarib



va ekspertlar o'rtasidagi muloqotni kuchaytiradi, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Forum O'zbekistonni zamonaviy, ochiq va investitsiyalar uchun qulay mamlakat sifatida taqdim etadi, bu esa xalqaro maydonda mamlakat

yo'nalishlari, davlat kafolatlari, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi, soliq imtiyozlari va sarmoya uchun qulay muhit yaratish borasidagi sa'y-harakatlar natijasida mamlakat mintaqadagi eng jozibador investitsiya manzillaridan biriga aylandi.

Budjet taqchilligini kamaytirish, ichki bank sektorini rivojlantirish, davlatga qarashli korxonalarining shartli majburiyatlarini kamaytirish, xususiy sektorning faol rolini oshirish, yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, texnik ta'limni kuchaytirish, oliy ta'lim va sanoat o'rtasidagi tafovutni qisqartirish, bilimga asoslangan iqtisodiyotni yaratishda qat'iy davom etish, iqtisodiy institutlarni mustahkamlash va boshqalar yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish maqsadlariga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari ushbu forumdagi nutqida investorlarning ishonchini yanada ko'proq qozonish va islohotlar ichkiligini ta'minlash yo'lida O'zbekiston dadil qadamlar tashlashini e'lon qildi. Eng avvalo, global ishlab chiqarish zanjirlarida har bir davlat uchun teng sharoitni ta'minlaydigan ishonchli qoidalarni o'rnatilishida O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish borasida dadil qadamlar tashlamog'ida. Buning uchun o'nlab qonun, yuzlab standartlar xalqaro talablarga moslashtirildi va bu ishlar shu yil to'liq yakuniga yetkaziladi.

Mamlakatimizda xorijiy sarmoyadorlarga yanada qulay muhit yaratish uchun mahalliy kompaniyalar bilan bir xil sharoitlarni kafolatlovchi "milliy rejim" joriy qilinadi, davlat organlari bilan munosabatga kirishishda "yagona daracha" tamoyili tatbiq etilishi belgilandi, investitsiya faoliyatini ortiqcha tekshiruvlardan kafolati himoyalash tizimi yaratiladi. Bular orqali 2030-yilga borib O'zbekiston iqtisodiyoti 200 mlrd. dollarga yetadi va bu jarayonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim rol o'ynaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi farovon O'zbekistonni barpo etishning asosiy strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasi alohida o'rinni egallamoqda, bunda integratsiyalashgan iqtisodiy siyosat, diversifikatsiyalangan ishlab chiqarish

imijini yaxshilashga xizmat qiladi. Buning isboti o'laroq so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotiga 90 mlrd. dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb qilingan, bu esa o'tgan yili milliy yalpi ichki mahsulotning 6 foizga o'sishiga yordam berdi. Belgilangan rejalar amalga oshadigan bo'lsa, 2030-yilga borib O'zbekiston iqtisodiyoti 200 mlrd. dollarga yetadi va bu jarayonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim rol o'ynaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi farovon O'zbekistonni barpo etishning asosiy strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasi alohida o'rinni egallamoqda, bunda integratsiyalashgan iqtisodiy siyosat, diversifikatsiyalangan ishlab chiqarish

Aytish joizki, IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida umumiy qiymati 30,5 mlrd. dollarlik investitsiya va savdo bitimlari imzolanganining uning samarali va ko'tarinki ruhda o'tganidan dalolat beradi. Investor hech qachon biror-bir loyihaga o'z-o'zidan sarmoya kirtmaydi. Hamkor izlashdan avval atrofi o'rganadi, sarmoya kirtmoqchi bo'lgan mamlakatning imkoniyatlari bilan tanishadi, tahlil qilib, o'zicha chamalaydi va shundan keyin bir qarorga keladi. Chunki amalga oshiriladigan loyihaga katta pul tiklar ekan, uning samara berishi barcha tomon uchun birdek zarur. Imzolangan kelishuvlar shundan dalolat beradiki, O'zbekistonga ishonch qaytdi. Forum doirasida Toshkent viloyatida quvvati 1400 megavatt bo'lgan issiqlik elektr stansiyasini qurish loyihasini amalga oshirish, Farg'ona viloyatining Besharq tumanida quvvati 500 megavatt, Namangan viloyatining Pop tumanida quvvati 200 megavatt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish bo'yicha investitsiya hamda elektr energiyasini sotib olish bitimlari

imzolandi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida – Sariosiyo tumanidan Shahrisabz tumanigacha yangi pulli avtomobil yo'li qurildi.

Yangi Namangan shaharchasi hududida esa zamonaviy ko'p qavatli uy-joy va ofislar barpo etiladi. Xavfli chiqindilarni qayta ishlash orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish loyihasini moliyalashtirish bo'yicha ham kelishuvga erishilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda sanoat, energetika, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab investitsiya shartnomalari imzolandi. Ushbu loyihalarni yaqin yillarda amalga oshirish bevosita mamlakat taraqqiyotiga, aholi baddingini ta'minlash va farovonligini oshirishga, hududlarda infratuzilma, iqtisodiyot tarmoqlari keng rivojlanishiga yo'l ochadi.

**To'liq TESHABOYEV,**  
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**  
**rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.**

## O'zbekiston ISTga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirmoqda

Shveysariyaning Jeneva shahrida O'zbekistonning Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a'zo bo'lish jarayonini qo'llab-quvvatlash maqsadida yuqori darajadagi seminar va axborot sessiyalari bo'lib o'tdi.



Ushbu tadbirda Prezidentning JST masalalari bo'yicha maxsus vakili Azizbek O'runov, Savdo-sanoat palatasi raisi Davron Vahobov boshchiligidagi Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik kengashi a'zolari, shuningdek, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi nufuzli xalqaro moliyaviy institutlar

vakillari, milliy hamda xalqaro ekspertlar qatnashdi.

Seminar doirasida savdodagi texnik to'siqlar (TBT), sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlari (SPS), milliy standartlarni JST talablariga muvofiqlashtirish kabi muhim masalalar muhokama qilindi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, savdo siyosatini liberalashtirish, eksportni rag'batlantirish va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ilgari surildi.

Uchrashuvda O'zbekistondan o'ndan ortiq tadbirkorlik subyektlari – qishloq xo'jaligi, elektrotexnika va to'qimachilik sohasida faoliyat yurituvchi eksportchilar ishtirok etdi. Tadbirkorlar JSTga to'liq a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirish maqsadida qanday imkoniyatlar mavjudligi haqida ma'lumotga ega bo'ldi. Shuningdek, jamoatchilik kengashi tomonidan ushbu masalalarni keng ommaga yetkazish yuzasidan tushuntirish ishlari tashkil etilishi rejalashtirilmoqda.

"Xalq so'zi".

Navoiydagi Langar qo'rg'onida kemping, uzunligi 800 metrlik ziplayn, 200 metrlik tyubing, zamonaviy restoran va selfi zona ishga tushdi.

# MAMLAKAT BO'YLAB YANGILIKLAR, VOQEALAR, TAFSILOTLAR



– Yaqinda nabirarning samokati podshipnigi to'kilib bozorga tushdim, – deydi mehnat faxriysi Tolibboy Sodiqov. – Topolmasam kerak deb o'ylagandim. Dastlabki do'kondayoq savdolashib ham o'tirmay, sotuvchi yigit aytgan narxda oldim. Ikki barmog'im orasida g'ildiratib aylantirarkanman, xayolimdan bu savil Navoiyda besh ming so'mga sotilayotgan bo'lsa, Xitoyning o'zida qancha turarkan, degan fikr o'tdi. Ro'zg'orimizdagi changyutkichning filtrini almashtirish fursati yetganligi esimga tushib, boshqa bir sotuvchidan to'g'ri kelmasa almashtirish sharti bilan o'n ikki ming so'mga filtr xarid qildim. "Tozasi" yigirma besh ming so'm dedi, uniyam 22 mingga bersa kerak...

Fikr



## ICHKI BOZOR EHTIYOJI QONDIRILMASA, EKSPORTGA YO'L YO'Q

Savdo baroridan kelib yo'l-yo'lakay kosiblar bozorini aylandim. Bir dona supurgi 25 mingdan 40 ming so'mgacha hayratga soldi. Bu supurgi Xitoyga borib qolsa, qanchaga sotilarkan?..

Tolibboy aka pensiyagacha Navoiydagi yirik sanoat korxonasida payvandchi bo'lib ishlagan. Bozor mexanizmi, konyukturasi va munosabatlari kabi zamonaviy iboralarni ko'p ishlatmas-da, podshipnik ishlab chiqarish supurgi bog'lashdan murakkabligini yaxshi biladi. Bizda supurgi changyutkich filtridan qimmatligini bilsa, xitoyliklar bozorlarimizni supurgiga ko'mib tashlashardi, deya kula-kula suhbatimizga yakun yasadi.

Hamsuhbatimizning jaydari tahlili iqtisodiyotimizning bugungi ahvolini to'laqonli ifoda etmasligi mumkin, biroq haqiqatdan yiroq emas. Sinchkov nazar solsangiz, bugun iste'mol ehtiyojarimizning yarmidan ko'pi – taroqdan

tortib, pashshaxonagacha chetdan keltirilayotganligiga yurtdoshlarimiz kundalik hayotida guvoh bo'lmoqda. Joriy yilda birgina Navoiy viloyati 54 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirganligini tasdiqlaydi. Bunda yirik hamkor davlatlar ulushi XXR 28,4 foiz, Rossiya – 15,1, Qozog'iston –10,1, AQSH – 7,5, Buyuk Britaniya –7,3, Turkiya –6,4, Yaponiya 5,4 foiz va bu jami importning 80,5 foizini tashkil etadi. To'g'ri, ulardan import qilinayotgan barcha mahsulotni mahalliy lashtirish mushkul, biroq ularni o'zimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, bozorlarda sog'lom raqobatni yuzaga keltirish bilan birga yangi ish o'rinlari manbai ekanini unutmaslik lozim.

Mamlakatimiz Prezidenti shu yilning 26-may kuni mahalliy sanoatni rivojlantirish bo'yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda bugungi tahlil va noaniqliklarga to'la sharoitda

har bir mamlakat, avvalo, eng ko'p ish o'rni yaratadigan sohalarni himoyalash choralarini ko'rayotganini ta'kidlaydi. Milliy brendlarni ko'paytirish, mavjudlarini xalqaro darajaga olib chiqish bo'yicha yangi tizim joriy qilinishining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Chunonchi, Savdo-sanoat palatasi har bir korxonaga borib, sertifikat olishga ko'maklashsa, qo'shilgan qiymatni ham, eksportni ham oshirish mumkinligini ta'kidlab bir qator hududlar, jumladan, Navoiy viloyatida xalqaro sertifikatga ega korxonalarini 20 taga yetkazish vazifasini qo'ydi.

– Xalqaro sertifikatlar sanoat ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega, – deydi Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi Savdo-sanoat palatasi rahbari Dilshod Shakarov. – Chunki ular mahsulotlarning shuqori sifatini, ishlab chiqarishning xavfsizligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Bozorda mijoz ishonchini qozonishning eng ustuvor

omili shu. Navoiy viloyati korxonalarini tomonidan joriy yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 111,3 foiz o'sish sur'atini tashkil etgan. Bunda uchta hudud yetakchilik qilib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 90 foizga yaqini Navoiy shahri, Karmana, Qiziltepa tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Navoiy shahridagi "NAVPROMLITMASH" mas'uliyati cheklangan jamiyati shulardan biri bo'lib, korxonada ichki bozor uchun metall konstruksiyalar ishlab chiqarilishi bilan birga hududdagi yirik sanoat korxonalarini ehtiyoji uchun ehtiyot va butlovchi qismlar tayyorlashni ham o'zlashtirdi.

– Viloyatimizda konchilik, metallurgiya, kimyo, energetika, qurilish materiallari ishlab chiqarish barqaror rivojlangan, – deydi "NAVPROMLITMASH" MCHJ rahbari Ibrohim Fayziyev. – Mazkur tarmoqlarda

faoliyat yurituvchi yirik korxonalar yaqin-yaqin havo va moy filtrlarini ham chetdan import qilardi. Endilikda ular uchun korxonamiz asosiy yetkazib beruvchi hisoblanadi.

Korxonaga xorijdan keltirilgan zamonaviy texnologiyalar "yashil" iqtisodiyot mezonlariga to'la mos keladi. Zavodda mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini tekshiruvchi sinov laboratoriyasi faoliyatini yo'lga qo'yilgan.

Maqolamiz avvalida changyutkich filtrlari haqida to'xtalgandik. Kimningdir kasanachilik yoki kooperatsiya asosida mahalliy jihozlar uchun filtrlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi, arzimagan shu mahsulotning buning chetdan kirib kelishi va valyuta chiqib ketishiga barham berib, jamiyatda yangi ish o'rinlari yaratilishi ta'minlayapti. Demak, mamlakatimiz JST rasman a'zo bo'lgach, raqobat yanada jiddiylashtirishni inobatga olsak, bugun ayni o'tni qamchilaydigan fursat ekanligini anglash mushkul emas.

Temur ESHBOYEV  
("Xalq so'zi")

### Xushxabar



## G'JUDUVONGA POYEZD KELDI

Tadbirkorlar hunarmandlari, mirishkor dehqonlari bilan tanilgan G'jduvon tuman hududida poyezd harakati yo'lga qo'yildi. Buning uchun qo'shni Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidan "Baraka" massiviga qadar 32 kilometr masofada temir yo'l tarmog'i tortildi.

– Davlatimiz rahbarining 2024-yil 31-may – 1-iyun kunlari Buxoro viloyatiga tashrif chog'ida berilgan topshiriq asosida bunyod etilgan mazkur temir yo'l tarmog'i tumanimiz uchun tarixiy ahamiyatga ega, – deydi mehnat faxriysi Samad Aminov. – Bu tuman iqtisodiyotini mustahkamlab, aholi turmush farovonligini yanada oshiradi. Negaki, "G'jduvon" EIZga temir yo'l vositasida to'g'ridan-to'g'ri kirib borish imkoniyati paydo bo'ldi.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, ushbu temir yo'l tarmog'i orqali oyiga yuzdan ziyod vagonida yuk tashish imkoniyati mavjud. Ishonchli va xavfsiz logistika tizimining vujudga kelishi tadbirkorlarning yuk tashishga sarflaydigan xarajatlarni 25 – 30 foizgacha kamaytiradi.

Masalarning iqtisodiy jihatiga alohida urg'u berayotganimiz bejiz emas. Shu paytgacha qurilish materiali sanalagan sement Qiziltepa temir yo'l stansiyasidan 25 kilometr masofa yo'l bosilib, yuk mashinalarida tashib keltirilmoqda. Ikki vagon atrofida shunday yukni manzilga yetkazib berishga taxminan 15 – 20 million so'm sarflayapti. Endilikda esa xarajat miqdori taxminan 4 million so'mni tashkil etadi. G'jduvonda Buxoro viloyatining boshqa hududlaridagiga qaraganda tadbirkorlik subyektlari ko'p ekanligi inobatga olinsa, iqtisodiy samara miqdori salmoqli bo'lishi yanada oydinlashadi. Birgina yuk tashish xarajatlarning o'zidan yiliga 50 – 60 milliard so'm iqtisodiy samara ko'riladi. Qolaversa, temir yo'l tarmog'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jalb etilishiga, ish o'rinlarining yaratilishiga, eksport mahsulotlari tayyorlash hajmi oshishiga olib keladi.

Temir yo'l tarmog'ining ishga tushirilishi munosabati bilan o'tkazilgan marosimda so'z olganlar ana shular haqida to'xtaldi.

Istam IBROHIMOV  
("Xalq so'zi")

### Ibrat

...Bemor ikki olam o'rtasida hayot uchun kurashmoqda. Bemorga qon kerak, u ko'p qon yo'qotgan. Bir tomchi qon, ming tomchi qon... Xullas, mana shunday og'ir lahzalarda donor degan hayot baxsh etuvchi o'sha bemorning joniga oro kiradi. Ikki olam o'rtasida o'lim bilan kurashayotgan insonga qon berib, uning qiyomatli qondoshiga aylanadi. Bu har kimning ham qo'lidan kelavermaydi.

## ODAMIYLIKNING OLIV MEZONI



texnikumida o'qidi. Yigittik burchini bajarib qaytgach necha yildirki, ota kasbida faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

Mavluda aya odamlarga hayot baxsh etishdek ezgu va xayri ishning boshini tutgan farzandi bilan faxrlanadi. Aslida sog'lom va jismonan baquvvat insonlardagina toza qon bo'ladi. Shu qon xasta bemor vujudiga kirib, chanqagan organizmni svuga to'yintirgan kabi to'yintiradi, oziqlantiradi, jonlantiradi, tibbiyot tili bilan aytganda, qaytadan hayot baxsh etadi. Donorlikning mas'uliyati bilan birga sharaflari ham juda katta. Buni dildan his qilgan Maqsudjon Qo'shmatov hech ikkilanmay, bir yilda 4-marta 450 grammadan qon topshiradi.

Qahramonimizning qadrdon do'sti – "Beg'araz donor" guruhi a'zosi, faol donor Bahrom Qo'chqorov ta'kidlaganidek, bu ishning ehtimol, beg'ubor qalb egasi bo'lmish bolakaydir... U yashashi, xastalikni yengishi kerak.

Nurafshon shahridagi Muqimiy mahallasi "Ziyolilar" ko'chasida istiqomat qiluvchi Maqsudjon Qo'shmatov "O'zsvuta minot" aksiyadorlik jamiyatining Nurafshon shahri suv ta'minoti korxonasida iqtisodchi bo'lib ishlaydi. O'z qoni bilan ko'plamning hayotini saqlab qolishga hissa qo'shayotgan donorni shu kunlarda muborak 80 yoshni qarshilab umrguzaronlik qilayotgan Mavluda aya Qo'shmatova dunyoga keltirgan. Maqsudjon shahardagi 4-umumiy o'rta ta'lim maktabini tugallab, poytaxtdagi Hisob-kredit

Otabek ISROILOV  
("Xalq so'zi")



## USMONJON OTA YARATGAN MO'JIZA

To'raqo'rg'onlik Usmonjon Fozilov haqiqiy bog'bon, qo'li tekkan nihol borki, albatta, baravj rivojlanadi. Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanidagi "Shohidon nurlari diyor" massividagi chuqurligiga adirliklarni tekislab yaratgan bog'lari hosilining ko'pligidan qaddini ko'tarolmaydi.

### Baraka

– Bugun mo'jizaday yaraqlab ko'rinayotgan bu yerlar ilgari ovloq, tashlandiq, hatto vahimani edi. Maksimal texnikalar yordamida tekislab, mevali daraxtlar ekdik, – deydi usta-bog'bon. – 2020-yilda 10 gektar yerda ekilgan 2500 tup o'rik, shaftoli ko'chatlari azim daraxtlarga aylandi. To'raqo'rg'onning iqlimi, tabiati betakror. Ozgina mehr berib imkoniyatlar ishga solinsa, kutilganidan ko'p baraka beradi.

Dastlab bu bog'larni yaratish uchun o'z mablag'imizdan 2,5 milliard so'm sarfladik. Hozirda 230 gektarning 119 gektari foydalanishga tayyor. To'g'ri, suv muammosi bor edi, ammo buning ham qalovini topdik. Yaqin atrofdagi kanalidan nasoslar yordamida bir kilometr masofaga 60 metr balandlikda suv tarmog'ini tortdik. Mazkur sug'orish tizimi o'ta tejamkor. O'tgan yildan boshlab hosil olishni boshladik. Mahallamizdagi o'n nafar kishining doimiy bandligi ta'minlandi. O'ttiz nafari mavsumiy ishlarga jalb qilindi.

Sevgan mashg'uloti yer bilan tillashish bo'lgan, qalbi tabiatga oshufta, tajribali bog'bon to'rt faslida ham tinmaydi. Ayni paytda o'rik, gilos, olxo'ri va shaftolizorlarining maydoni 60 gektardan ortdi. Olti gektar uzumzorda "Rizamat", "Shohona", "Husayni" va boshqa navlar parvarishlanmoqda. Turkiyadan keltirilgan "Vanderkot", "Yuna", "Fantaziya" va "Maygres" kabi serhosil navlar ham hosilga kirish arafasida. Mahsulotlar eksport qilinmoqda.

– Mahsulotlarimiz xalqaro talablarga javob bergani uchun xaridor, – deydi Usmonjon ota. – O'tgan yildan ilk hosil olgan bo'lsakda, bu yil 12,5 tonna o'rik eksport qildik. Bu – 30 ming AQSH dollari, degani. Talab va zaruriyatdan kelib

chiqib mahsulot eksportini yanada rivojlantirish maqsadida 6 gektar maydonda barcha servis turlarini o'zida jamlagan 5 million dollarlik Namangan viloyati miqyosidagi logistika markazini qurish loyihasini tayyorlayapmiz. Mazkur zamonaviy majmuaning elektr energiyasi to'liq quyosh panellari hisobiga qoplanadi.

Usmonjon Fozilov qo'shni qishloqdagilar uchun ham ibratli ishlarni qilmoqda. Xilvat yerlarni o'zlashtirishda ularga yordam berishdan erinmaydi. Ko'plab ko'chatlarni savob uchun o'zlashtirishda ularga yordam berishdan erinmaydi. Ko'plab ko'chatlarni savob uchun o'zlashtirishda ularga yordam berishdan erinmaydi. Ko'plab ko'chatlarni savob uchun o'zlashtirishda ularga yordam berishdan erinmaydi.

Muhiddin MAG'ZUMOV,  
jurnalist.

## MAHALLADA

## «KAMBAG'ALLIKDAN FAROVONLIK SARI» DASTURI QACHON BOSHLANADI?

Qamashi tumanining Qiziltepa mahallasi hududdagi eng yirik aholi yashash manzillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bu yerdagi 760 ta xonadonda 4 ming 280 nafardan oshiq kishilar istiqomat qilmoqda.

### Xolis nazar

Mahalla markazini ko'pchilik "Qiziltepa shaharchasi", deb ataydi. Mahalla "G'uzor – Shahrisabz" avtomobil yo'lining bo'yida joylashgan. Tumaning tog'li qishloqlari, xususatan, mashhur "Langar ota" ziyoratgohi, Maydanak observatoriyasiga olib boruvchi yo'l ham shu mahalladan boshlanadi. Hududdagi aksariyat yo'llarga asfalt yoki shag'al qoplama yotqizilgan. Tuproq yo'llarni uchratmaymiz.

Bu yerda shinamgana dehqon bozorchasi, o'nlab savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari mavjud. Sakson besh nafar kishi tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqda. Yana bir qancha fuqarolar imtiyozli kredit olib, ma'lum bir sohada ishni yo'lga qo'yish orqali o'zini o'zi band etgan.

– Farzandlar katta bo'lgach, tashvishi ham kattalashar ekan, – deydi mahalla

fuqarosi Dildora Aralova. – Turmush o'rtog'im xorijga borib ishladi. Topgani ro'zg'orning kam-ko'stidan ortmas, doim joniga oro kirsam derdim. Uch yil avval imtiyozli kredit olib, tomorqamizning 2 sotix qismida issiqxonona qurdik. Bodring, pomidor ekdik. Issiqxonamizda hozircha isitish tizimi yo'q. Lekin yopiq usulda ekishning o'ziyoq bozorga ancha ertagi mahsulot chiqarish imkonini beradi. Joriy yilda issiqxonamizga 450 tup pomidor ko'chatlarini ekdik. Apreldan bozorga mahsulot chiqara boshladik. Xomaki hisob-kitobiga ko'ra har bir tup pomidordan o'rta 4-4,5 kilogrammdan hosil olyapmiz. Bu – 450 tup ekindan qariyb 2 tonna hosil naqd, degani.

Dastlabki tashabbusining foyda keltira boshlaganidan ruhlangan ayol joriy yilda farzandlari bilan yana 10 million so'm imtiyozli kredit olib, gulchilikni yo'lga qo'ydi. Hozir 30 dan

ortiq turdagi hovli va xona gullarini yetishtirib, ichki bozorga yetkazib bermoqda.

– Mahallamizda 35 million so'm imtiyozli kredit evaziga ichimlik suvini qayta tozalash qurilmasini ishga tushirdik, – deydi shu mahallalik tadbirkor Jahongir Hayitov. – Hududlarda toza ichimlik suviga bo'lgan talab yuqori. Shundan kelib chiqib ichimlik suvini qayta tozalash, tozalash texnologiyasini xarid qildik. Hozir "Kitob – Qarshi" magistral quvuri orqali o'tayotgan suvni suv tarqatish punktidan xarid qilib, qayta ishlaymiz. Belgilangan ko'rsatkichlar bo'yicha to'liq tozalangan suv mijozlarga yetkazib berilmoqda. Ishni yangi boshlaganimizga qaramay, buyurtmalarimiz soni kun sayin ortib bormoqda.

Bir qaraganda mahallada hamma ishlar ko'ngildagidek. Ammo bu yerda ham aholini yillar davomida qiyab kelayotgan muammolar yetarli.

Mahalladagi xonadonlarning barchasi kamida 8 sotixdan tomorqaga ega, lekin oqar suv yo'q. Imkonini topgan oilalar 100 – 120 metr chuqurlikdan yer osti suvini olib, ekin-tikin qiladi, ammo hamma ham buni eplay olmayapti.

Agar hududga markazlashgan holda suv yetkazib berilsa, tomorqachiik gullab ketardi, deydi qiziltepaliklar.

Elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolar ham bisyor. Mahallada 84 ta oila hali ham rasman kambag'allik maqomida.



Prezidentimizning 2024-yil 23-sentyabrdagi tegishli Farmoni hamma Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi majlis bayoniga asosan, Qiziltepa mahallasi ham "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturiga kiritilgan edi. Dasturga kiritilgan har bir mahallaga respublika

idoralari rahbar yoki o'rinbosarlari birlashtirilib, ularning oldiga har oyda kamida bir marotaba o'zi birlashtirilgan mahallaga shaxsan kelib, bu yerdagi muammolarni o'rganish, dastur doirasida ishlarni tashkil etish, muvofiqashtirish va ijrosini ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar qo'yilgandi. Ammo Qiziltepada hali-hanonda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha bajariladigan ishlar rejasi tuzilgani yo'q. Qiziltepaliklar esa dastur bo'yicha katta ishlar amalga oshirilishini kutmoqda...

Jahongir BOYMURODOV  
("Xalq so'zi")

# INSON QADRI VA XALQIMIZ FAROVONLIGI YO'LIDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning bosh maqsadi – inson qadri va fuqaroning huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishdan iborat. Yangi O'zbekistonda barpo etish strategiyasi doirasida ijtimoiy sohaga alohida e'tibor qaratilib, aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish va sifatli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishlarida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

## Nuqtai nazar

### “Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat”

Yangilangan Konstitutsiyamizning birinchi moddasida O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb qat'iy belgilab qo'yilgan tarixiy ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, xalqimizning xohish-irodasi bilan Asosiy Qonunda muhrlangan bu prinsiplar – mamlakatimizning taraqqiyot yo'li va taqdirini, uning kelajigini belgilab bergan ushbu “beshta ustun” hech qachon o'zgartirilmaydi. Zero, bu tamoyillar faqat va faqat xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini himoya qilishni, tengsiz va buyuk ne'mat – mustaqilligimizni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash va kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishni ko'zlaydi.

Konstitutsiyaning yangi tahriri fuqaroning davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid normalar qariyb uch baravar ortdi. Bosh qomusimizga “Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat” tamoyili konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlandi, bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, nogironlari bor shaxslar va keksa avlod vakillari ta'vullarini ishonchli muhofazasini ta'minlash, fuqaroning ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori belgilanishi, fuqarolar tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini davlat hisobidan olishga haqliligi kabi qo'shimchalar kiritildi. Natijada fuqaroning konstitutsion normalar orqali kafolatlangan ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklari davlatning tegishli majburiyati bilan mustahkamlandi. Bu esa, o'z navbatida, so'nggi yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida erishilgan natijalar va Taraqqiyot strategiyasi doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun mustahkam konstitutsion himoyani ta'minlashga xizmat qiladi.

“Ijtimoiy davlat” va “inson qadri” tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu g'oyaning tub negizida, avvalo, inson haq-huquqlarini ulug'lash, aholiga xizmat qilishdek oliyjanob maqsad mujassam. Ijtimoiy davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratib beradi. U ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo'yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir. Shuningdek, ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo'lgan iste'mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo'yilishini nazarda tutadi. Shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlekni ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishni talab qiladi. Keyingi yillarda aholi turmush darajasini yuksaltirish, bandlekni ta'minlash, kafolatlangan sifatlari ta'lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironlari bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ham ana shunday ezuq maqsadlar yotadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, “ijtimoiy davlat” tushunchasi ilk bor 1850-yilda Lorens fon Shteyn tomonidan qo'llanilgan. U davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlikni o'rnatish, quyi va kam ta'minlangan tabaqalarni boylar va qudratli darajasiga ko'tarishdan iborat deb hisoblagan. Milliy

davlatchiligimiz tarixini o'rganganimizda ham “ijtimoiy davlat” tushunchasi shunga o'xshash nomlarda ko'plab uchrashiga guvoh bo'larniz. Masalan, IX-X asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida fozil shahar haqida bildirilgan fikrlar aynan “ijtimoiy davlat” tamoyilining mazmun-mohiyatini ochib beradi. Shunga o'xshash fikrlarni Bizansiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida ham uchratish mumkin.

Prezidentimiz ushbu tushunchani izohlar ekan “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar,

ta'minlash va daromadini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqalanishga yo'l qo'yimaslik kabi masalalarga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Ihsizlikdan himoyalash, kafolatlangan sifatlari ta'lim berish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironlari bo'lgan shaxslarni, migrantlar va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimizning doimiy diqqat markazida. Davlat byudjetining asosiy qismi aynan shu kabi masalalarga yo'naltirilayotgani ham fikrimizning amaliy tasdiqidir. Alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan oilalar, ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun respublika miqyosida joriy etilgan “temir daftar”, “ayollar dafari”, “yoshlar dafari” va mahallabay ishlash tizimi ham ijtimoiy davlatning mohiyatini va hayotiy ro'lini namoyon etmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning ijobiy natijalari ham diqqatga sazovor. Xususan, “O'zbekiston – 2030” strategiyasining dastlabki maqsadi hisoblangan ta'lim sohasidagi

“So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga e'tibor qaratilgan bo'lsak, ularning aksariyati ijtimoiy sohaga yo'naltirilganini ko'rish mumkin. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Odamlarning farovon va hayotdan roz bo'lib turmush kechirishi uchun munosib sharoit yaratish, bandlekni ta'minlash va daromadini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqalanishga yo'l qo'yimaslik kabi masalalarga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda.”

odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir”, deya ta'rif bergan edi.

Globallash jarayoni va bozor iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan davrda olimlar ijtimoiy davlatning o'ziga xos belgilari mavjud ekanini ta'kidlaydi va ushbu jihatlarga quyidagilarni kiritadi: aholining daromadlari va boyligini yirik mulkdorlarga daxl qilmasdan qayta taqsimlash imkonini beruvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasi; ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti; ko'p tarmoqli va aralash iqtisodiyot; fuqarolik jamiyatini shakllantirish; davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish; davlatning har bir inson uchun munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta'minot va shaxs sifatida o'zini o'zi anglash yo'lida teng boshlang'ich sharoitlarni ta'minlash maqsadlarini tasdiqlash; fuqarolar oldidagi ijtimoiy javobgarlik; byudjet ijtimoiy to'lovlarining mavjudligi; ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot va bandlek davlat tizimlarining mavjudligi; jamiyatning barcha muhtoj a'zolarini istisnosiz ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi mavjudligi; fuqarolarning farovonlik darajasi uchun javobgarlikni davlat o'z zimmasiga olishi.

### Amaliy natijalarga yo'naltirilgan sa'y-harakatlar

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga e'tibor qaratilgan bo'lsak, ularning aksariyati ijtimoiy sohaga yo'naltirilganini ko'rish mumkin. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Odamlarning farovon va hayotdan roz bo'lib turmush kechirishi uchun munosib sharoit yaratish, bandlekni



Oliy ta'lim muassasalari 2,5 barobarga oshishi, ya'ni ularning soni 200 dan ortishi, o'z navbatida, oliy ta'limga qamrov darajasi 9 foizdan 43 foizga oshishiga zamin yaratdi. Shu qatorda 40 dan ziyod oliygo'harlarga akademik va oliyviy mustaqillik berilishi ulardagi ta'lim sharoiti va sifati sezilarli darajada yuksalishiga hissa qo'shganini qayd etib o'tish ham adolatdan bo'ladi.

Aholining ehtiyojmand qatlamlarini uy-joy bilan ta'minlash ham ijtimoiy davlatning muhim vazifalaridan biridir. Ta'kidlash o'rinishki, so'nggi sakkiz yilda mamlakatimizda 500 mingga yaqin yangi uy-joy qurilib, foydalanishga topshirildi. Uy-joyga bo'lgan ehtiyojni qondirish bo'yicha birinchi marta ayollar va yoshlarga, ehtiyojmand oilalarga subsidiyalari ajratish tizimi yo'lga qo'yildi. Tizim qonuniy, adolati va shaffof ishlash uchun onlayn platformalar ishga tushdi.

Ayniqsa, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni ish bilan ta'minlash va bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Yoshlar bandlekni ta'minlashda ilg'or zamonaviy usullardan foydalangan holda yigit-qizlarimizni “Future Skills Uzbekistan” va “Bir million dasturlash” loyihalari doirasida IT kasblariga, “Yoshlar 14+” va “Tadbirkor ayol” loyihalari doirasida tadbirkorlik ko'nikmalari va xorijiy tillar bo'yicha o'qitilayotgani e'tiborga molik. Yoshlar va xotin-qizlarda zamonaviy kasb, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida “Ishga marhamat”, band bo'lmagan aholiga xizmat ko'rsatuvchi “Monomarkaz”, tuman va shahar kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahallalarda kasb-hunarga o'qitish maskanlari faoliyat yuritmoqda.

### Islohotlar markazida – inson

Asosiy Qonunimizda mamlakatimiz ijtimoiy davlat ekanining mustahkamlab qo'yilishi yangi O'zbekiston mazmun-mohiyatiga ham shaklan, ham ma'nan mos bo'ladi, desak, ayni haqiqat. E'tirof etish kerakki, mavjud strategiyalarning maqsadlariga erishishda Prezidentimiz asosiy e'tiborini birinchi galda yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya hisoblangan ta'limni rivojlantirishga qaratish kerakligini ta'kidladi. Endilikda mamlakatimizda nafaqat maktab qurilishi va sifatlari ta'lim, shu bilan birga, sifatlari ta'lim negizini yaratuvchi “sog'lom turmush tarzi hamda sog'lom va sifatlari ovqat bilan ta'minlash”ga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tajriba 2022-yildan boshlab Qoraqalpog'iston va Xorazmda yo'lga qo'yilib, 285 ming boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun bepul ovqatlanish yo'lga qo'yildi. 2023-yildan esa ushbu amaliyot qolgan viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etilib, buning uchun Davlat byudjetidan yetarli mablag' ajratildi. Xullas, “Ta'lim uchun investitsiya – buyuk kelajakka sarmoya” shiori ostida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirib borish, sifatlari ta'lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha katta islohotlar amalga oshirildi.

Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat sari dadil qadam tashlamoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson, uning manfaatlari va farovonligi turibdi. Davlat aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish va sifatlari ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish orqali har bir fuqaroning munosib hayot kechirishi uchun shart-sharoit yaratishga intilmoqda. Bu esa yangi O'zbekistonning asosiy maqsadlaridan biri – adolati va farovon jamiyat qurishiga xizmat qiladi.

**Bahodir XOLIQOV,**  
Samarqand davlat chet tillar instituti rektori, professor.



## xabarlar

### Safina – xalqaro turnir g'olibi

Polshaning Belostok shahrida yengil atletika bo'yicha xalqaro turnir o'tkazildi.



Butunjahon yengil atletika federatsiyasi taqvimidan o'rin olgan “bronz” darajadagi mazkur musobaqada O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Safina Sa'dullayeva ishtirok etib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Balandlikka sakrash dasturida qatnashgan yurtdoshimiz 1.90 metr bilan mavsumdagi eng yuqori natijani ko'rsatdi. Keyingi o'rinlarni ukrainalik Katerina Tabashnik (1.87) va polshalik Viktoriya Miaso (1.84) band qildi.

### Yosh bokschilarimizning muvaffaqiyati

Xabar berilganidek, 10 – 14-iyun kunlari Qirg'izistonning Cho'lpnoota shahri IX xalqaro “Qirg'iziston gavhari” sport o'yinlariga mezbonlik qildi.



Ushbu turnirning boks bahslarida O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi ham ishtirok etdi. Ahamiyatlisi, musobaqada qatnashgan 7 nafar bokschimiz (A. Rahimjonov, K. Bahodirov, J. Mahamadisoqov, A. Esomboev, I. Shokirjonov, J. To'ychiyoyev, A. Sultonboyevning barchasi yakunda oltin medallarga ega chiqdi.

### Chavandozlarimizdan navbatdagi g'alaba

Yaqinda Rossiyada ot sportining konkur yo'nalishi bo'yicha Yevroosiyo ligasining “Grand Prix” bosqichi o'tkazildi.



Mazkur musobaqaning 150 sm. balandlikdagi to'siqlardan ot sakratishda ham yurtimiz Akbar Sharipov “Afir” laqabli tulporida eng yaxshi natija qayd etgan holda g'olib bo'ldi. Shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ikkinchi chavandozimiz Bekzod Qurbonov “Matts VG” bronza medalga sazovor bo'lgandi.

### Terma jamoamiz a'zolari ikkinchi bo'ldi

Italiyada para akademik eshkak eshish bo'yicha jahon kubogi davom etmoqda. Biz uchun ahamiyatlisi, unda mamlakatimiz terma jamoasi a'zolari ilk medalini qo'lga kiritdi.

Xususan, jahon kubogining “PR2m1x” dasturida startga chiqqan ham yurtimiz Diyorbek Boybo'lsinov finalgacha yetib bordi va marraga 8 daqiqa 42.71 soniyada ikkinchi bo'lib yetib kelgan holda kumush medal bilan taqdirlandi. Jahon kubogining ushbu yo'nalishidagi oltin va kumush medallar irlandiyalik hamda turkiyalik sportchilarga nasib etdi. “Xalq so'zi”.

## 18 – 20-iyun kunlari poytaxtimizda damli cholg'u orkestrlari va ansambllari o'rtasida “Damli sozlar navosi” xalqaro festivali bo'lib o'tadi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 3 tabog. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir S. Mamirov.  
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.00 Topshirildi — 00.55 **1 2 3 4 5 6**

ISSN 2010-6788